

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

**AMALIY TILSHUNOSLIK, O`ZBEK TILI VA ADABIYOT
O`QITISH METODIKASI KAFEDRASI BITIRUVCHISI
BAHORA ESHBOYEVA**

**Alisher Navoiy ijodi- tarbiya maktabi va uni adabiyot darslarida
o`rgatish usullari**

Mavzusidagi Bitiruv –Malakaviy ishi

Ilmiy rahbar f.f.n. B. Muhiddinova

Samarqand-2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I. BOB. Alisher Navoiyning adabiy merosi	
1.1. Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish.....	8
1.2. Navoiy ijodida insonparvarlik qarashlari.....	17
II. BOB. Alisher Navoiyning ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rni va ahamiyati	
2.1. Navoiy asarlarida ta’lim-tarbiya masalalari.....	29
2.2. Navoiy hikmatli so‘zlarining mazmun-mohiyati va umrboqiyli.....	37
III. BOB. Alisher Navoiy faoliyati va adabiy merosini o‘rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	
3.1. Navoiy ijodining darsliklarda o‘rganilishi.....	44
3.2. Navoiy tarjimayi holini o‘rganilishida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	60
XULOSA.....	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	73

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

*Umrning butun ma'nosi
mavhumlikni to'xtovsiz zabt etish,
tobora va hamisha ko'proq bilishga
intilishdir³*

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston davlatining mustaqillik davridagi taraqqiyoti ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha qirralarida bo'lgani singari madaniy-ma'rifiy sohalarda ham tarixiy o'zarishlarni yuzaga keltirmoqda. Istiqlol mafkurasi tufayli "Tilimizni, dinimizni, urf-odatimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni butkul yo'qotib qo'yish xavfidan saqlab, asrab-avaylab, ularning azaliy mazmuni va qudratini tiklash..."² darajasiga erishdik. Qadimiy merosimiz ildizlarini ko'rsatish, o'tmishdagi boy an'analarni, milliy qadriyat va ma'naviy boyliklarimizni yangi jamiyat qurilishiga tadbiiq etish bugungi hayotimizning bosh vazifalaridan biriga aylandi.

Agar biz istiqloлга qadar Navoiy ijodi adabiyotshunoslikda kam darajada o'rganilgan edi, desak haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Uning badiiy, ilmiy va tarixiy merosi xususida ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan, asarlari qayta-qayta nashr etilgan. Lekin mustabit tuzum davrida diniy-tasavvufiy adabiyotni zararli deb tushunish, ba'zan uning vakillari ijodini qoralash natijasida Buyuk bobomiz Alisher Navoiy yaratgan diniy-ma'rifiy ruhdagi asarlarni o'rganish e'tibordan chetda qolib ketgan edi. Vatanimiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng bu yo'lda juda katta ishlar amalga oshirildi. Ammo shunday bo'lishiga qaramasdan, adabiyot darslarda Alisher Navoiyning hayoti va ijodining o'rganilishida ko'proq qaysi jihatlarga e'tibor qaratish lozimligi, uning she'riyatining badiiyati, ma'rifiy ahamiyati hamda buni bugungi yosh avlod vakillariga yetkazib berish usullari,

¹ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси. 1999, 195-бет.

² Каримов И.А. Истиклол ва маънавият. – Т.: Узбекистон. 1993-йил, 71-бет.

yo‘llari nimalardan iborat ekanligi to‘la yoritilmadi. Navoiy ijodi, uning tarbiya maktabi va uni darsliklarda berilishidagi mana shu jihatlarni ochib berish mavzuning dolzarbligi hisoblanadi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Buyuk mutafakir, g‘azal mulkining sultoni, davlat va madaniyat arbobi, donishmand tarixchi, zakovatli shoir va yozuvchi Alisher Navoiy hayoti va faoliyati haqida ko‘plab izlanish va tadqiqotlar olib borilgan. Ammo Navoiy ijodiga oid tanqidiy asarlar yetarlicha bo‘lmagani kabi, buyuk shoirning hayoti va uning siyosat, adabiyot va ilm-san‘at sohasidagi mahsuldor faoliyatini tasvir etadigan, shaxsiyatini to‘la aks ettiradigan asarlar ham u qadar to‘kis va yetarli emas. Navoiy haqida ma‘lumot tarixiy asarlarda (“Ravzatus safo”, “Habibus siyar”, “Boburnoma”, “Badoeul vaqoye” v hokazo) va qisman shoirning o‘z asarlarida uchraydi.. Darhaqiqat, Shoir haqidagi materiallar uning shaxsiy hayotini ko‘p tarmoqli ijodiyotini, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohadagi roli va ahamiyatini mukammal ravishda ko‘rsatishga imkon beradigan miqdorda emas edi⁴. Ayniqsa sobiq tuzum davrida mavjud materiallar ham shu vaqtgacha aniq bo‘lsa-da, ilmiy ravishda tekshirilib, bir sistemaga solinmagan edi.

Rus sharqshunoslaridan N.I. Ilminskiy, N.I. Pantusov, S.I. Polyakov, N.I. Veselovskiy, V.V. Vyatkin, A. Samoylovich, V. Bartold; turk olimlaridan Fuod Kupruluzoda, Rashid Rahmati Arad kabilar ham Navoiy faoliyati va merosi bilan shug‘ullandilar.

Navoiyning hayoti, faoliyati, ilmiy, badiiy merosini o‘rganish, asarlarini nashr etish borasida o‘zbek olimlari ham muayyan ishlarni amalga oshirdilar. Adibning 1990-yilda 20 tomlik mukammal asarlar to‘plami nashr etildi. Natan Mallayev 1989-yilda “Alisher Navoiy lirikasi”ni nashr ettirdi. e‘lon qilindi. Umuman, Navoiyshunoslik ravnaqida Yahyo G‘ulomov, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek, Vohid Zohidov, Homil Yoqubov, Porso Shamsiyev, M. Sulaymonov, I. Haqqulov, Suyuma G‘aniyeva, Sabohat Azimjonova, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Said Aliyev, Botirxon Valixo‘jayev va yana ko‘plab olimlarning ilmiy

⁴ Ойбек. Навоий ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1961. № 1, 8-бет.

tadqiqotlari muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Navoiyni o‘rganish Old va O‘rta Osiyo mumtoz adiblarini o‘rganishga qaraganda batamom boshqacha tus oldi. Alisher Navoiy ijodini ilmiy o‘rganish ayniqsa XX asr boshlarida juda qizg‘in tus oldi. Bu borada akademik Bartoldning “Mir Alisher va siyosiy hayot” asari taqsiinga sazovordir. Olim tarixiy shoir haqidagi tarixiy asarlarni, manbalarni o‘zari taqqoslab, ularga tanqidiy yondashib Navoiyning aniq avtobiografiyasini XV asr ijtimoiy –siyosiy jarayonlari bilan bog‘liq holda ochib berishga muvaffaq bo‘ladi⁵.

Yevropaning Navoiy bilan tanishishi juda murakkab kechgan. 1557- yilda Venetsiyada italyan tilida quyidagi nom bilan behad g‘alati kitob nashr etiladi: “Peregrinaggio di tre giovani figlivoli del re di Serendippo, per di M. Kristoforo Armeno della Persiana nell Italiana Lingua trapportato (“Carandip shohi uch yosh o‘g‘lining janob Xristofor Armaniy tomonidan fors tilidan italyan tiliga o‘g‘irgan sayohati”).

Bu kitob aftidar yevropaliklarda juda katta qiziqish uyg‘otgan, negaki, 1584- yildayoq uning ikkinchi nashri e‘lon qilingan. U 1661, 1622 va 1628- yillarda ham chop etilgan. Shu matn nemscha tarjima uchun ham asos qilib olingan. Nemscha matn 1599- yilda qayta bosilgan va Leybsigda 1630- yilda va 1783- yillarda yana nashr qilingan. Kitobning muallifi kim bo‘lganligini aniqlashning iloji bo‘lmadi. So‘z boshidan uning tabrizlik Armani bo‘lganligi anglashiladi. Asar ikki qismga bo‘linadi. Asar voqealari Navoiy asarlaridagi qahramonlar bilan bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Sitsishvilining “Yetti go‘zal nomli asari ham mohiyatan Nizomiyga emas, balki prof. Kekelitze takidlaganidek va B.T. Rudenko yaqqol isbotlaganidek, Navoiyga borib taqaladi⁶.

Yevropada Kartmer, I.N. Berezin, M. Belin, V.V. Bartold, Y.E. Bertels kabi navoiyshunos olimlar Navoiy asarlari ustida ish olib borganlar. Jumladan M. Nikitiskiyning magistrlik dissertatsiyasi Alisher Navoiy haqidagi birinchi original tadqiqot hisoblanadi. ” Ammo shunga qaramasdan, metodika sohasida

⁵ Эшонбобоев А. Навоий таржимаи ҳолига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. № 1, 32-бет.

⁶ Бертельс Е.Э. Навоийю Монография./ Таржимон Мирзаев И. К. ф.ф.д., проф. –Т.: “Тафаккур қаноти”, 2015. -356 –бет.

yetarli ishlar amalga oshirilmagan. Biz jurnallarning sahifalarida ba'zan Alisher Navoiy hayotini yoki ijodini o'qitish bo'yicha tafsiyalarga duch kelsak-da, uni ilmiy ish darajasida ishlanganini uchratmadik.

Tadqiqotning maqsadi: Alisher Navoiy ijodi- tarbiya maktabini o'rganishda belgilab olingan maqsadlar quyidagilar:

- Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini darsliklarda berilishi, bugungi davr o'quvchisini tarbiyalashdagi roli;
- Navoiy asarlarining adabiyot darslarida qay darajada o'rganilishi va bunda nimalarga ahamiyat berish kerakligi;
- Navoiy lirikasining ma'rifiy ahamiyatini aniqlash, barkamol avlodni tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish kerakligi;
- Navoiy asarlarini o'quvchi-yoshlarga o'rgatishda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .

Ishning yangiligi: Yuqorida aytib o'tganimizdek, Navoiy hayoti va ijodi o'zbek adabiyoti va metodika sohalarida o'rganilgan bo'lsa-da, lekin uning asarlarining darsliklarda o'rgatish metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'lami atroflicha o'rganilmagan edi. Biz o'z bitiruv malakaviy ishimizda mana shu jihatga e'tibor qaratdik.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: Ish amalga oshirilish jarayonida maktab va akademik litsey darsliklarida o'quvchilarning o'quv, bilim faoliyatini izchil shakllantirishga yo'naltirilgan nazariy yondashuvlar bilan boyitildi. Shuningdek, ALISHER NAVOIY hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha tegishli ko'rsatma va tavsiyalar beriladi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotni yoritib berishda prezidentimiz I.A.Karimovning ilmiy asarlari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Navoiy asarlari, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning adabiyot darsliklari va bu mavzuga doir monografiyalar, dissertatsiyalar, hamda ilmiy maqolalarga tayaniladi.

Tadqiqot metodlari. Obyektiv kuzatgan holda, biografik, struktural va qiyosiy-tarixiy metodlardan foydalanildi.

Ilmiy ishning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Ushbu ilmiy bitiruv ishining mavzusi SamDU o‘zbek filologiya fakulteti, amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liq bo‘lib, kafedraning umumiy mavzusidan kelib chiqqan holda tanlangan.

Tadqiqotning tuzilishi: Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

I BOB. Alisher Navoiyning adabiy merosi

1.1. Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va taffakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, sha‘n -u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir. Ta‘bir joiz bo‘lsa, olamda tirkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e‘tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutaffakir desak, mutaffakirlarning mutaffakiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir. **I.Karimov**

Sharq xalqlarining adabiyoti qanchalik chuqur o‘rganilsa, bu xalqlar orasidagi adabiy aloqalar ham shunchalik ravshanroq ko‘rina boradi. Adabiy aloqalarning o‘rganilishi esa dohiy san‘atkorlarning, adabiy maktab vakillarining ijodiy qudratini, ta‘sir doirasini aniqlash uchun to‘laroq tasavvur beradi. Bu jihatdan Navoiy merosini o‘rganish alohida ahamiyatga egadir.

Navoiy merosini o‘rganish yolg‘iz o‘zbek olimlarininggina vazifasi emas. Navoiy buyuk bir adabiy maktab boshlig‘i sifatida dohiy Nizomiy kabi bir qancha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta‘sir ko‘rsatganligidan uning ijodini o‘rganish ham keng bir sohani tashkil etadi. Dunyo sharqshunoslari Navoiy merosini o‘zbek xalqining adabiyotini o‘rganish maqsadida tekshirsalar, sharq xalqlari tadqiqotchilari butun hayotini xalq baxt –saodatiga bag‘ishlagan bu ulug‘ san‘atkorning hayoti va ijodini o‘z madaniyatlarini o‘z adabiyotlari tarixini chuqur o‘rganish, o‘zaro mushtaraklik tomonlarini aniqlash maqsadida o‘rganishgan. Chunki Navoiy tojik, eron, hind madaniyatida buyuk bir madaniyat homiysi sifatida mashhur bo‘lsa, ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar, turk, qoraqalpoq xalqlari adabiyotida esa o‘zining kuchli ta‘sirini ko‘rsatgan⁷.

⁷ Хамид Арасли.Навоий Меросини ўрганиш тарихидан /Ўзбек тили ва адабиёти масалалари/1961. № 1, 3-7-бет.

Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakilidir .Chunki hech kim bu til va adabiyotning ravnaqi uchun uningdek xizmat qila olgan emas. Navoiy ijodi turkey adabiyotning eng yuksak cho‘qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilde bunchalik ko‘p va xo‘p (Bobur) yozmagan edi. Navoiy barcha xalqlarning eng buyuk shoiridir. Chunki u o‘zini “Xito(y)dan to Xuroson” gacha yoyilgan turkiy qavmlarning o‘z shoiri, deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog‘i ostida birlashtirdi, “yakqalam” qildi.Bu bilan millatning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy ravnaqiga buyuk ta’sir ko‘rsatdi.

Buyuk shoir taqdir taqozosi bilan Xurosonda, uning poytaxti Hirotida yashab o‘tdi. Qadim zamonlardan shu jumladan Navoiy yashagan davrdan buyon ham Xuroson va Movarounnahr bir mamlakat bo‘lib, bir taxt egasi ixtiyorida kelganligi va aholisining asosiy nufuzini turk xalqlari tashkil etganligi ma’lum. Zahiriddin Muhammad Bobur uning tili Andijon shevasi bila “rost” (to‘g‘ri) ligini aytadi. Binobarin, biz qadim turkning eng muhim bo‘g‘inini tashkil etgan va bugun o‘zbek millati bo‘lib shakllangan O‘zbekiston ahli buyuk Navoiyning bevosita vorislaridirmiz. Navoiydek jahoniy zotga avlodlik va vorislik hissi har bir o‘zbekning qalbini g‘urur va iftixor tuyg‘ulari bilan to‘ldiradi.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o‘g‘li Shohrux Mirzo shohligi davrida Hirotida tug‘ildi. Zamondoshlari uning haqida ko‘pincha “Nizomiddin Mir Alisher” deb yozadilar. “Nizomiddin”-din –diyosat nizomi degan bo‘lib ,donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, “mir”- amir demakdir.Uning otasi G‘iyosiddin Muhammad(uni G‘iyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonining ishonchli kishilardan edi.Onasi amirzoda shayx Abusayid changining qizi bo‘lgan, ismi ma’lum emas. Alisherning bobosi Temurning o‘g‘li Umarshayx emikdosh (ko‘kaldosh) bo‘lgan ekan.Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o‘tdi.Kichiklik chog‘idan she’r va musiqaga ishq tushdi. Olim-u fozillar davrasida bo‘ldi. Uch-to‘rt yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvorning bir she’rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soldi. Bir yildan so‘ng esa uni

maktabga beradilar.U bo'lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o'qidi. Uning iqtidori haqidagi gaplar esa el orasida tarqalib bordi. Keyinchalik u yozadi:

Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz janj ila

(Kim senga mashaqqat chekib haq va haqiqat yo'lida bir harf o'rgatgan bo'lsa, uning haqini yuz xazina in'om etish bilan ham ado eta olmasan).

1447-yilda Shohrux Mirzo vafot etib, temuriy shahzodalar orasida taxt uchun kurash boshlanadi. Hirot notinch bo'lib qoladi. Alisherlar oilasi Iroqqa yo'l oladi. Yo'lda, Taft shahrida Alisher zamonasining mashhur tarixchisi, "Zafarnoma"ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi...

Iroqqa borayotgan karvon yarim tunda Taft shahriga kirib borib to'xtaydi. Ittifoqo karvon qo'ngan manzil buyuk tarixchi istiqomat qiladigan xonaqohning shunday yonginasida edi. Tong otganda mahalla bolalari yangi kelgan karvonga qiziqib uning atrofini o'rab oladilar. Ular hirotlik bolalarni ham o'zlariga qo'shib olib o'yin asnosida xonaqohga kiradilar. Supada o'tirgan nuroniy bir keksa yangi karvonni bilmoq uchun bolalardan birini yoniga chaqiradi. Olti yoshlarda bo'gan Alisher darhol borib keksa kishining barcha savollariga burro javob beradi. Javoblardan mamnun bo'lgan keksa olim uning maktabga brogan-bormaganligini, qayergacha o'qiganligini so'raydi va haqqiga duo qiladi. Shu payt Alisherning otasi atrof ulug'lari bilan kelib qoladi. Barchalari nuroniy keksaga hurmat va mulozamat ko'rsatishga shoshadilar. Yosh Alisher shundagina bu kishining kim ekanligini anglaydi.

Alisherlar xonadoni 1451-yilda Hirotga qaytadi. Tarixchi Xondamir bu bilan bog'liq shunday bir hikoyani keltiradi. Karvon Yazd cho'li bilan Hirotga borarkan, tungi yurishlardan birida ot-ulov ustida hammani uyqu bosadi. Alisher mingan ot, ittifoqo, yo'ldan chiqib, bo'lajak shoir egardan tushib qoladi. Uyqu zo'rlik qilib, uyg'onmaydi. Horigan ot ham egasi yonidan ketmay, to'xtab qoladi.

Alisher tong otib quyosh qizarganda uyg'onadi. Qarasa, poyonsiz sahro, atrofda hech kim yo'q. Yolg'iz otgina yovshan ildizlarini chimtib turibdi. O'n

yoshli bola o‘zini qo‘lga oladi, otini minib, zehn bilan yo‘lni topib ilgari yuradi. Kun qizib, chanqoqlik boshlanadi. Shu payt uzoqdan bir narsa qorayib ko‘rinadi. U suv tola mesh ekan. Ollohga shukronalar aytib Alisher yo‘lni davom ettiradi. Uning ota-onasi manzilga yetgach, o‘g‘illari yo‘qligini biladilar va bir mulozimni shoshilinch orqaga qaytaradilar. Mulozim ko‘p yurmay Alisherga duch keladi. Alisherni go‘yo u qayta tug‘ilganday, quvonch bilan kutib oladilar.

1451-yilda Abulqosim Bobur Mirzo xuroson taxtiga o‘tiradi, notinchliklar bosiladi. G‘iyosiddin Muhammad Sabzavorga hokim qilib taynlanadi. Alisher esa o‘qishni davom ettiradi. Maktab yosh Alisherni she‘riyat, adabiyot olamiga olib kirdi. Bo‘lajak shoir Sa‘diy sheroziyning “Guliston”, “Boston ” asarlarini, Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr”(Qush nutqi)ni so‘ngsizishtiyiq bilan o‘qidi. o‘lni davom ettiradi. Ayniqsa qushlar tilidan keltirilgan hikoyalar va ularning chuqur mazmuni Alisherning o‘y- hayolini egallab oldi.

She‘rga mehr Alisherni ijodga undadi. U 7-8 yoshida she‘r yozgani ma‘lum. Bu she‘rlar shoirning aytishicha, “turk alfozi bila ” ya‘ni, turkcha (o‘zbekcha bitilgan). U forscha sherlar ham yozdi. O‘zbercha she‘rlariga “Navoiy”, forchasiga “foniy” taxallusini qo‘ydi. “Navo”ning bir ma‘nosi-kuy, ohang, yana biri-bahra. Dard, g‘amni ham “navo” deganlar.”Foniy” esa o‘tib ketuvchi, yo‘q bo‘luvchi, vaqtincha degani. Shoir taxalluslari shu barcha ma‘nolarni qamrab olgan. Navoiy 15 yoshlarida o‘z she‘rlari bilan zamonasining mashhur shoirlari diqqatini tortdi. Xondamirning yozishicha, she‘rlari bilan endigina tanilib kela boshlagan Alisher o‘z davrining dongdor shoiri Mavlono Lutfiy xizmatiga boradi. Mavlono undan she‘r o‘qishni iltimos qiladi. Alisher o‘zining

Orazin yopg‘och ko‘zimdin sochilur har lahza yosh

Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh

matla‘i bilan boshlanadigan g‘azalini o‘qiydi. She‘r nozik hayolga boy bo‘lib, so‘zlar ma‘nodor, manzarasi yorqin va ta‘sirchan, o‘xshatishlarga boy edi.⁸

⁸Adabiyot 10 –sinf uchun darslik

Alisher Navoiy tarjimai holini ilmiy o‘rganish XX asr boshlarida boshlandi. Bu borada akademik V.V.Bartoldning 1928 –yili chop etilgan “Mir Alisher va siyosiy hayot” nomli rilolasi alohida ahamiyatga ega.Olim o‘nlab tarixiy manbalarni o‘zaro qiyoslab, o‘ziga qadar amalga oshirilgan ishlarga tanqidiy yodashib, shoir biografiyasini XV asr ijtimoiy –siyosiy jarayonlari bilan bog‘liq holda yoritib berishga muvaffaq bo‘lgan. Keyinchalik esa o‘zbek navoiyshunoslari shoirning asarlarini keng miqyosda o‘rganish asnosida tarjomayi holini yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirib bordilar. Hozirda biz diqqat qaratmoqchi bo‘lgan nuqta esa Navoiyning Samarqanddagi hayoti bilan bog‘liq.

V.V.Bartold o‘zining yuqoridagi risolasida Mirzo Boburning “Bilmon ne jarima bila Sulton Abu Said Mirzo Hirotdan ixroj qildi” degan so‘zlariga sasoslanib, Navoiy Abusaid tomonidan Samarqandga surgun qilingan deb yozgan edi.Mirxondning “Ravzatus –safo” asarida ham bu haqda ma’lmot uchraydi. Bu masala bilan shug‘ullangan V. Abdullayev 1948 –yili “Alisher Navoiy ” to‘plamida chop etilgan “Alisher Samarqandda”maqolasida bir qator e’tiborga loyiq mulohazalarni bayon etgan⁹.

Alisher Navoiy hayot voqealari haqida o‘z taassurotlari, his –tuyg‘u, fikr – o‘yi, zavqi va didi lirik misralarida ifodalanadi, shoir xalq orasida yurib, xalqning dardi bilan yashaydi. Buning ta’sirini uning har bir asarida uchratish mumkin. Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotidagi eng yorqin siymolardan biridir. Bu buyuk bobokalonmiz qoldirgan ulkan merosda olam va odamga bog‘liq bo‘lgan hodisalar favqulotda teran nigoh bilan tahlil etilgan.Ularda inson mohiyati, uning ijtimoiy vazifasi, burch va mas’uliyatlari, imkoniyat va ojizliklari yuksak badiiy ohanglarda tasvirlangan¹⁰. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, “O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan uiug‘ zotlardan yana biri bu Alisher Navoiy bobomizdir.Biz uning mo‘tabar nomi,ijodiy merosining boqiyliqi, badiiy dahosi

⁹ Эшонбобоев А. Навоий таржимаи ҳолига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. № 1, 32-бет.

¹⁰ Маллаев Н.Алишер Навоий. Лирика. Тошкент –“Ўқитувчи” –1980.

zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib soʻz yuritimiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi millatimizning gʻururi, shan-u sharafini dunyoga tarannum qilgan oʻlmas soʻz sanʼatkoridir.

Navoiy asarlarining alifbo tartibidagi ixcham roʻyxati:

“Arbain”, “Badoye’ ul- bidoya”, “Badoye’ ul-vasat ” (“Xazoyin ul-maoniy”), “Devoni foniy ”, “Favoyid ul-kibar” (“Xazoyin ul-maoniy”), “Farhod va Shirin” (Xamsa), “Hayrat ul-abror” (Xamsa), “Holoti pahlavon Muhammad”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Layli va Majnun”(Lison ut-tayr), “Mahbub ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon”, “Mufradot”, “Muhokamat ul-lugʻatayn”, “Munojot”, “Munshaot”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Navodir un-nihoya”, “Navodir ush-shabob”(Xazoyin ul-maoniy), “Nazm ul-javohir”, “Qasidalar”, “Risolayi tiyr-andoxtan”, “Sabʼayi sayyor”(Xamsa), “Saddi Iskandariy”(Xamsa), “Siroj ul-muslimin”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi mulki Ajam”, “Vaqfiya”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Gʻaroyib us-sigʻar” (Xazoyin ul-maoniy).¹¹

Navoiy oʻz lirikasida koʻplab lirik janrlardan foydalangan. Uning asarlarida janrlar rang-barangligini kuzatishimiz mumkin: gʻazal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarjiband, tarkiband, masnaviy, qasida, soqiynoma, qitʼa, ruboiy, muammo, lugʻz, tuyuq, fard kabilar.

Alisher Navoiy ulugʻ oʻzbek shoiri, mutaffakiri, oʻzbek adabiyoti va oʻzbek madaniyatining yalovbardori, oʻzbek adabiy tilining asoschisi. Navoiy asarlarining umuminsoniy gʻoyasi –insonparvarligi, xalqparvarligi, adolatparvarligi doʻstlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, maʼrifatlilik kabi goʻzal tuygʻularnin yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali oʻzbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Oʻzi ham Nizomiy, Firdavsiy, Homer, Shekspkir, Dante, Gyote, Pushkinlar qatoridan oʻridan oʻrin oldi. Alisher Navoiy ozbek adabiyotida

¹¹ Alisher Navoiy hayoti va ijodi: albom/Tuzuvchilar:B.Toʻxliyev. D.Toʻxliyeva; -T.: Bayoz, 2013. -56 b

g'azalchilikni yuksak bosqichga ko'tardi, betakror go'zal "Xamsa"si bilan xamsachiligimizga asos soldi. Nasrit asarlari bilan o'zbek nasrchiligini katta yo'lga olib chiqdi. Adabiyot, shoir va yozuvchilar haqidagi aruz ilmi, til va din, tarix to'g'risidagi teran olim ekanligini namoyish qildi. Shoh Husayn Boyqaroning eng yaqin do'sti va saroyning obro'li kishisi, ulug' amiri sifatida xalq taqdiri, adabiyot, san'at, ma'rifat, obodonchilik, va umuman xalq taqdiri to'g'risida jon kuydurishning ajoyib namunasini ko'rsatdi. U o'z davridayoq mehribon va talabchan ustoz sifatida buyuk hurmat va ehtiromga sazovor edi. Keyin o'zbek adabiyotining yarim asrlik tarixida ham ijodkorlarining rahnamosi bo'lib keldi.

Navoiy otasidan erta yetim qolishiga qaramay, uning ilm o'rganishiga hech narsa to'sqinlik qila olmadi. U umri davomida jo'shqin ijod bilan shug'ullandi. Ayniqsa, Samarqandda yashagan kezlarda ko'p ulug' allomalar bilan yaqindan tanishdi. Yoshligidan qalin do'sti bo'lgan Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallagach (1469), Alisher Navoiyni Samarqanddan chaqirtirib oladi va avval uni muhrdor etib tayinlaydi. Keyinroq vazirlardangina emas, hatto amirdan ham yuqori turuvchi ulug' amir (Amiri kabir) darajasiga ko'tariladi. Navoiy ulug' amir lavozimida xalq va davlat taqdiri uchun qayg'uradi, ilm, fan, madaniyat rivojiga, shahar, qishloqlarning obodonlashtirilishiga, yurtida tinchlik, osoyishtalikni saqlashga o'z hissasini qo'shadi. Navoiy "Vaqfiya" asarida "Ilgimdin kelgancha zulm tig'in ushotib, mazlum jarohatiga intoqom malhamin qo'ydim. Va ilgimdin kelmaganini ul hazrat (Husayn Boyqaro demoqchi) arziga yetkazdim", deganida juda haq edi. Navoiy davlat mablag'ini xayrli ishga sarf qilishi uchun jon kuydiribgina qolmasdan, o'zining shaxsiy mablag'iga yuzdan ortiq inshootlar qurdirdi. ("Ixlosiya", "Nizomiya", "Xusraviya" kabi madrasalar, "Xalosiya" nomli xonaqoh, "Dorul xuffoz" (qorilar uyi) gumbazi va hokazolar). Buburning takidlashicha adabiyot, fan va san'at ahlining taqdiri to'g'risida hech kim Navoiydek qayg'urmagan va ko'mak bermagan ekan. Bunda so'zsiz Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaroning yaqin do'stligi bir –biriga suyanishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Husayn Boyqaro adolatli va xalqparvar podshoh sifatida

Alisher Navoiyning hurmatiga sazovor bo'lgan edi. U adabiyot va san'atni teran tushunadigan, o'zi ham Amiriy taxallusi bilan mazmun, g'oya va badiiy darajasi yuqori bo'lgan g'azallar yozar edi. Ular bir –birlarining she'rlariga o'xshatma – tatabbular, naziralar, muxammaslar bog'lar edilar. Husayn Boyqaro o'z risolasida Navoiyni turki y tilning buyuk qudratini namoyish qilganligi uchun “so'z mulkning sohibqironi”, “Turk tilining o'lan jasadig'a masih anfosi bilan ruh kiritdi, masih nafasi bilan jon ato etdi”, deydi . Navoiy “Xamsa”sini yozib tugatganda Husayn Boyqaro unga o'zining eng oliy hurmatini bildiradi –o'zining oq otiga Navoiyni mindirib, o'zi piyoda otning jilovidan yetaklab shahar o'rtasidan olib o'tadi. Navoiy o'z ijodini lirik janrlardan boshlagan. Uning she'rlari nafaqat Hirotda, Samarqandda ham juda mashhur bo'lgan. Navoiy zulli sonayn ijodkordir. Chunki u ham fors tilida, ham o'z ona tili bo'lgan eski o'zbek tilida ya'ni turkiy tilda samarali ijod qilgan. O'zbekcha she'rlariga Navoiy, forscha she'rlariga esa Foni taxallusini qo'llagan. Forscha she'rlari alohida devonga jamlangan bo'lib, “Devoni Foni” deb nomlanadi.

Alisher Navoiy doim ijod zavq-shavqi bilan yonar, ulkan niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun tinmay ishlar, ammo vaqti yetmas edi. U badiiy ijod deb amirlikdan voz kechdi. Biroq baribir shohning eng ishongan kishisi, uning nomidan mamlakatni boshqarish huquqiga ega bo'lgan oily mansabdor shaxs bo'lib qoldi. Navoiy so'nggi navasigacha shohga buyuk izzat –hurmat bilan qaradi: Husayn Boyqaro safardan qaytayotganda unga peshvoz chiqish uchun Navoiy bir tosh yo'l bosadi. Shoh yaqinlashganda Navoiyning boshi aylanib, behuzur, behalovat bo'ladi. U shohning qo'lini opish uchun otdan tushadi, lekin yurishga madori yetmaydi, odamlar suyanchi va yetovi yordamida Husayn Boyqaroga yaqinlashib, boshini uning quchog'iga qo'yadi. Kasal o'z qilmishini qiladi, miyasiga qon quyiladi. Harakat va so'zlashdan qolgan ulug' shoir uch kundan

so‘ng, 1501 –yilning uchinchi yanvarida hayotdan ko‘z yumadi. Alisher Navoiyning jasadi Hirotga qo‘yiladi¹².

Alisher Navoiyning ijodi juda erta boshlangan. Olim Izzat Sultonov Navoiyning “Furqatingda zafaron uzra to‘karman lolalar” va “Labing ko‘rgach iligim, tishlarim har dam taxayyurdim” misralari bilan boshlanuvchi, shuningdek, “Alif” radifli g‘azallarini Navoiy 14 -15 yoshida yozganini va ularning badiiy yuksak ekanligi takidlaydi. Navoiy 24 yoshidayoq devon tuzgan va uni “Badoe ul –bidoya ” (“Boshlang‘ich ijodlar”) deb nomlangan. Ikkinchi devoni “Navodir un –nihoya ” (“Eng nodir she‘rlar”) esa 1480 –yilda tuzilgan. U “Xamsa” asarini bor yo‘g‘i ikki yilda 1483 -1485 –yillarda yozib bitkazadi, vaholanki, birgina “Saddi Iskandariy” dostoni 7215 baytdan iborat (butun “Xamsa” 51230 misra)dir. Navoiy ijodining yana bir qanoti uning “Xazoin ul –maoniy” (“Ma‘nolar xazinas”) she‘riy asari bo‘lib (1492-1498), u xalq orasida “Chor devon” deb ham nom olgan. Navoiyning barcha turkiy she‘rlarini o‘z ichiga olgan mazkur to‘rt devonga 3132ta she‘r kiritilgan (“Xazoin ul –maoniy”dan keyin Navoiy uch yilcha umr ko‘rdi tabiiyki, yana bir qancha she‘rlar bitdi). Chindan ham to‘rt devondan iborat bo‘lmish bu asarning birinchisi “G‘aroyibus –sig‘ar” (“Bolalik ajoyibotlari”), ikkinchisi “Navodirush –shabob” (“Yigitlik nodirliklari”), uchinchisi “Badoeul –vasad” (“O‘rta yosh badealari”), to‘rtinchisi “Favoyidul –kibor” (“Keksalik foydalari”) deb nomlanadi. Garchi Navoiyning o‘zi “Xazoinul –maoniy”ga yozgan “Debocha”sida yoshlik vaqtlarimdagi she‘rlarimni “G‘aroyibus –sig‘ar”ga kiritdim deb (“Tufliyat ovonikim yetti, sakkiz yoshtan yigirma yoshqacha chemasi bo‘lg‘aykim, umr fusulidin navbahori va hayot gulshanining shukufa va gulzoridur, aning madhida “G‘aroyibus –sig‘ar” bilan sarf qildim.”) takidlasa ham, navoiyshunoslarning tekshirishi va iqroriga ko‘ra (olim H. Sulaymonov) bular shartli ravishda umrning to‘rt fasliga moslab bo‘lingandir. Masalan, bolalik fasliga mansub bo‘lmish birinchi devonda qarilik yillari ruhiyatini ifodalovchi, yoki

¹² Абдурахмонов Ф., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: Ўзбекистон, 2002, 198 -203 бетлар.

keksalik davriga nisbatan berilgan “Favoyidul –kibor ”da yoshlik kayfiyatini ifodalovchi she’rlar ham o’rin olgandir.

Alisher Navoiy fors tilini juda mukammal bilgan va hatto “Muhokamatul –lug‘atayn” (“Ikki til haqida muhokama” 1499) kitobida forsiy vaturkiy tillarni bir –biriga ilmiy qiyoslab, ularning o’zlariga xos fazilatlari , imkoniyatlari va qudratini yorqin ko’rsatib beradi. Batanparvar Navoiy turkiy tilning kuchi, nazokati va katta imkoniyatini namoyish etish uchun asarlarini ko’proq asosan turkiy tilda yozdi. Ayni chog‘da forsiy tilde ham kuchli asarlar yoza olishi, Sa’diy, Xusrav dehlaviy, Hofiz va jomiy kabi forsiygo‘y ulug‘ allomalar bilan bellasha olajagini amalda isbotlash maqsadida foniy taxallusi bilan ham she’rlar yozadi va “Devoni foniy” –“Foniy devoni”ni tuzadi (1496), Ustozi Jomiy Nvoiyning turkiy va forsiy ijodiga juda yuksak baho bergani ham bejiz emas edi. Navoiy Jomiyning “Nafohatul –uns” asarini o‘zbek tiliga erkin tarjima qildi, to‘g‘rirog‘, unga suyanib turib, falsafiy yo‘nalishdagi asarini taratdi va unga “Nasoyimul –muhabbat” deb nom berdi. Bevosita ustozining shani –shavkatini ulug‘lovchi “Xamsatul mutaxayyirin” (“Besh hayrat”) asarini ham yozdi (1492). Navoiy o‘z ustoz va do‘stlarini ulug‘lovchi “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” kabi nasriy asarlarini yaratdi.¹³

Alisher Navoiy o‘zbek nasrchiligi taraqqiyotiga ham katta hissa qo‘shgan. Navoiyning “Mahbubul –qulub ”, “Majolisun –nafois ”, “Munshaot” asarlari ham o‘zbek adab iyoti tarixida yangi hodisa, yangicha yo‘nalishdir. Uning she’r vazni haqidagi “Mezonul –avzon”(1492), muammolar haqidagi “Risolai muammo” (1492), tarix va ulug‘ avliyolar, daholar to‘g‘risidagi “Tarixi mulki ajam” (1485), “Trixi anbiyo va hukamo” (1498-1499) kabi asarlari Navoiyning qomusiy bilim, yuksak taland egasi ekanligi va o‘ta zahmatkashligini yana bir bor tasdiqlaydi. Navoiyning hatto o‘z vafotidan bir kun avval ham bir g‘azal bitganligi uning o‘z qalamini bir daqiqa ham qo‘ymaganligidan dalolat beradi.(navoiyshunos A.

¹³ O‘zbek adabiyoti tarixi.2 –jild. Toshkent, 1978. 48-50 –betlar.

Hayitmetov “Aylamas” radifli g‘azali shoirning eng so‘nggi asari ekanligini dalillaydi).

Alisher Navoiy she‘riyati mazmuning chuqurligi, qamrovining kengligi olg‘a surgan fikr, g‘oya tilak –armonlarining yuksakligi va o‘tkirligi, janrlarning xilma –xilligi shaklining mukammalligi va go‘zalligi, obrazlarning boyligi va hayotiyligi bilan qimmatli va e‘tiborlidir. “Xazoinul –maoniy” da oltita lirik janrga doir she‘rlar bo‘lib, ko‘pchiligini g‘azal tashkil etadi: 2600 g‘azal, 135 ruboiy, (“Nazmul javohir”da 266 ruboiy, shuningdek nasriy asarlarida yuzdan ortiq ruboiylar bor). 210 qit‘a bor. Ba‘zi janrlarda, jumladan tarkiband soqiynoma kabi janrlarda bittadan she‘r yozgan. O‘zbek she‘riyatida Navoiygacha va undan keyin ham hech kim g‘azal janrini bu ulug‘ shoirdek yuksak darajaga ko‘tara olmagan. Navoiy bu janrlarga shunchaki qalamini sinash va mahoratini namoyish qilish uchun emas, balki qalbidagi fikr, orzu –armonlar, tuyg‘u, kayfiyatlarni ifodalash imkoniyati nuqtayi nazardan murojaat etadi. Va shuning bilan birga ularning yangi qirralarini namoyon etadi. Masalan, g‘azalda ko‘proq ishqiy tuyg‘ularni ifodalasa, ruboiyda falsafiy qarashlarni, qit‘ada ijtimoiy qarashlarni, axloqiy kechinma va fikrlarni ifodalaydi.

Navoiy ijodi o‘zining purma‘noligi bilan aqlni lol qoldiradi. U o‘zbek tilini yuzlab hikmatli so‘zlar, qanotli iboralar bilan boyitdi. Ular xuddi maqol kabi xalq tilida qo‘llanilib kelmoqda¹⁴.

¹⁴ Тожиҳўжаев М. Навоийга олмонча эҳтиром. “Навоийга армуғон”, илмий мақолалар тўплами. –Т.: 2006. 132 –б.

1.2. Navoiy ijodida insonparvarlik qarashlari

Barcha buyuk ijodkorlarda bo'lgani Alisher Navoiy asarlarida ham hayot butun murakkabligi bilan qalamga olinib, tariff va tanqid, nafrat va muhabbat, shukuh va tushkunlik, parvoz va mahzunlik tuyg'ulari bir –birini almashtirib keladi. Ammo shoir ushbu ziddiyatlarni qiyoslab tasvirlar ekan, hamma vaqt ezgu g'oyalar tantanasini ko'zlab fikr yuritadi va komil inson axloqini namuna qilib ko'rsatib, jamiyat voqealari, odamlarning a'mol –u ishlariga shu mavqedan turib baho beradi. Shunga binoan Navoiy jamiki soxtakorlik, yolg'on va yasama muomala –munosabatlar, zulm –u sitam, qalloblig –u tilyog'lamalikni kuchli bir nafrat bilan qoralaydi. Va bunga muqobil ravishda samimiyat, rostlik, sidq –u safo, adl –u insofni ulug'lab madh etadi. Ushbu tushunchalar qiyosi “Hayrat ul –abror” dostonida boshidan oxirigacha davom etadi. Chunonchi haqni nohaq qilib ko'rsatuvchi zolim podsho ham “hiyla uyiga sutun” bo'lgan riyokor shayxlar ham, “dunyo ziynati kasbidin hiylasozlik” qiluvchi hudnamo muhannasvashlar (xunasalar) ham, “ko'nglida ming g'arazi bor” nopok amaldorlar ham o'zini dono qilib ko'rsatuvchi johil ulamolar ham aslida tuz (to'g'ri) yo'ldan yurmaydigan manfaat uchun, nafs uchun oqni qora, qorani oq deb buqalamunlik qiladigan soxtakor, yolg'onchi ishilaridir. Shoir bu toifalarning har birini alohida olib, turli masxaralovchi va nafrat qo'zg'atuvchi tashbeh, istioralar yordamida fosh etadi, soxtakorlikning tub ijtimoiy mohiyatini ochib beradi. Ammo bu bilan ham qanoatlanmay, “Rostlik tarifidakim” deb boshlanuvchi maqolatida mazkur mavzu ustida yana ham batafsilroq to'xtalib o'tadi.

Navoiy rostlikni vujud uyi, ya'ni borliqni muvozanat va mutanosiblida tutib turuvchi ustun, insoniyat jamiyatini ichidan yorituvchi munavvar sham deb tariflaydi. Zero allohning bir ismi haq, ya'ni rostlik (chin, haqiqat)dir. Butun olam ana shu haq hikmatining qonuniyati asosida qurilgan, adolat ham aslida rostlikning tantanasi bo'lmog'i kerak. Odil odam shuning uchun ham odilki, u o'rtada turib rostni yolg'ondan, haqni nohaqdan ajratadi, haqiqatni barqaror etadi. Rostlik insonni sharaflovchi axloqiy fazilat, imon –etiqod asosi. Rostgo'y odam

jasur, ma'naviy sog'lom (solim), osoyishta va xotirjam bo'ladi. Navoiy bu hislatni insonning ichki olami, tarbiyasiga bog'lab tushuntiradi. Chunki asl mohiyati, niyati to'g'ri bo'lgan odam har yerda, har qanday sharoitda to'g'rilik tarafida turib uni himoya qiladi. "rostdir ulkim, nazari to'g'ridir" ya'ni dunyoga, odamlarga hayoga to'g'ri nazar bilan qaraydigan, munosabat –u muomalasi to'g'ri bo'lgan odamni rost yo'ldan yuradigan odam deyish mumkin. Shoir rostlikning ahamiyati va foydasini turli tashbehtar orqali yorqin tasvirlab, rostgo'y podsholar, haq yo'lida jon fido qiladigan nabilar, orif insonlarni misol qilib keltiradi. Sulaymon payg'ambarning uzugiga "rosti –yu rasti" ("to'g'ri bo'lsang taraqqiy etasan, yoki to'g'rilik –najot yo'li")deb yozilgan ekan.¹³

Alisher Navoiy shunday yozadi:

Qilmasa bu muhr xati yorliq,
Shohg'a yo'q g'ayri girifdorliq.
Tuzluq o'lub oxir anga dastgir,
Tuzluk ila xalq anga farmonpazir.

Ya'ni: agar bu muhr, yozuv yordam bermasa, shoh nohaqliklar, yolg'onlag girdobiga girifdor bo'ladi. Xudoning va xalqning g'azabidan qutula olmaydi. Lekin Sulaymon har doim rostlikka amal qilgani bois saltanati mustahkamlandi. Odamlargina emas, jinlar –u hayvonlar, hatto hashorotlar ham unga itoat edi. Yurtga qut –baraka yog'ildi. Navoiy bu misol orqali muhim ijtimoiy –siyosiy masalani ko'taradi: rostlik va adolat –jamiyat va davlat barqarorligi, poydevorining bosh omili. Buning aksi o'laroq yolg'onchilik avj olsa, axloqqa putur yetadi. Davlat ham jamiyat ham yemirila boshlaydi. Shu bois ulug' mutaffakir rostlikning qadri, ahamiyatini ko'rsatish uchun yolg'onning falokat keltiruvchi oqibatlarini ham bir –bir tasvirlab o'tadi.

Birinchiidan, agar jamiyatda rostlik axloqi qonun –qoida darajasida amal qilmasa, rostgo'y odamning ishi yurushmaydi. Aldov, firibgarlik yashash tarziga

¹³ Комилов Нажмиддин. Турфа талкинлар ажрим килувчи кузгу. Навоийга армуғон. илмий маколалар туплами. Низомий номидаги ТДПУ, 2006.3 -7 бетлар

aylansa, unda rostlikning qadri tushib ketadi. Odamlar bora –bora chin so‘zga ishonmay qo‘yadilar. Ish shu darajaga boradiki, kishilar rost gapdan balodan qo‘rqqanday qo‘rqadilar, rostgo‘y odamga esa dushmanga qaraganday qaraydilar.

Turfa zamon ahlig‘a biz muhtalo,
Kim yo‘q alar oldida chindek balo.

Xato so‘z yolg‘onga qattiq ishongan odamning qarashlari, o‘y – tushunchalari shu asosda shakllanadi va unga keyin qancha rost gapni gapirsangiz, ham qabul qilmaydigan bo‘lib qoladi. Butun zamon, davr shunday ahvolga tushsa, bu katta fojia:

Davr chu kajlikka qilur iqtizo,
Sen tilasang rost, emasdur rizo.

Darhaqiqat, zamon egrilikni himoya qilib tursa, to‘g‘rilik sinadi. Odamlar esa bunday paytda to‘g‘ri so‘zlaydigan kishilarni pisand qilmaydilar, Ta‘qib qiladilar va nochor, g‘arib yashashga majbur etadilar. Alisher Navoiy o‘z zamonasida shu kabi holatlarni ko‘p uchratgan, hatto o‘z boshidan kechirgan, davlat arbobi bo‘lib, xalq orasida yurib, uning o‘zi ham dushmanlar va tuhmat, yolg‘onchilik, firibgarlik qurshovida qolgan. Uning ham boshiga qanchadan –qancha kulfatlar yog‘ilgan. Shu bois u alam bilan yozadi:

Kimki bu davronda qilur rostliq,
Yo‘qtur ishi g‘ayri kam –u kostliq.

Ya‘ni: to‘g‘ri yashayman degan odamning ishi azob –u uqubatdan boshqa narsa emas. Rostlik tushunchasi sadoqat, vafo, muhabbat, poklik tushunchalari bilan ma‘nodosh. Rostgo‘y odamgina qalloblik, makr –u hiylani fosh qila oladi, bu nuqsonlarga qarshi kurashadi, o‘zini ham tozalab, yuksalib boradi. Shu ma‘noda rostlik ma‘naviy kamolotni belgilovchi asosiy sifatdir. Rostlikka muhabbat ilmga, olimlarga mehr –u muhabbatni yuzaga keltiradi. Yolg‘onchilik esa aksincha, makr, hiyla, ikkiyuzlamachilik, ko‘zbo‘yamachilik laganbardorlik kabi qator nuqsonlarning doyasi. Bu nuqsonlar faqat o‘zining sohibigagina emas, balki boshqalarga ham zarar keltiradi, ziyon, zahmat yetkazadi, jamiyatning

tizimini izdan chiqaradi. Jamiyatlardagi shunday odamlar rostgo‘y, haqiqatni talab qiladigan kishilarni doimi siquvga oladi.

Xo‘sh, odamlar qanday sabablar bilan ilohiy sifat bo‘lgan rostlikni qo‘yib, shayton zotiga xos bo‘lgan sifatlarni o‘zlashtirib oladilar? Bu savol umuminsoniy, butun bashariyatni qiynovchi savollardan biridir. Hazrat Navoiy bu savolga ham javob qidirgan. Uning nazariga ko‘ra buning javobi quyidagicha: 1) shaxsiy manfaatni ko‘zlash; 2) mansabga erishib olguncha o‘zini bilimli, halol, tadbirkor qilib ko‘rsatish; 3) zaiflik va qo‘rquv tasirida yolg‘on gapirish. O‘z manfaati yo‘lida yolg‘on gapirib odamlarni aldash keng odat tusiga kirgan xavfli hodisa bo‘lib, Navoiy buning bir necha misollarini keltiradi. Chunonchi, el orasida “borcha yomondin yomon” bo‘lgan riyokor shayxlarni mazammat etib deydi:

Ro‘zi uchun muncha fusunsozlik,

Mansab uchun muncha dag‘obozlik.

Bunday nayrangboz shayxning maqsadi o‘zini avliyoyi zamon qilib ko‘rsatib, hadya, nazr –u niyoz olish, saroy ahli hokimlarga yaqinlashishdir, deb yozadi shoir. Bundaylar tushgan jirkanch kishilar. Holbuki, tariqatning birinchi sharti nafsning qutqusini yengish, mol –u dunyoga berilmaslikdir. Bunday odamlar faqat so‘fiylar orasida emas, olimlar, qozilar, a‘lam –u muftilar, kotiblar imomlar orasida ham bor. Yoki saroy kotiblari amaldorlarning pora olib, birni ming qilib yozishlari, sadoqat –u diyonat qalbiga tig‘ urib, qog‘oz yuzini “o‘z yuzlari kabi qora ” qilishlari ham shunga misoldir. Shunday “omili devon” lar borki, deb yozadi Navoiy, ularning yolg‘on va hiylalariga dev ham hayron qoladi. Ular til biriktirib, soxta hujjatlar tayyorlaydilar, chiroyli muhrlar bosadilar. Maqsadlari esa shu yo‘l orqali el molini o‘zlashtirish va qo‘shimcha soliqlar orqali aholi boshiga balo yog‘dirish. Podsho esa bundan aksar bexabar qoladi va aldanadi:

G‘ofil ul ishdin shahi davlat panoh,

Davlati arkoni bo‘lib rishvaxoh .

“Sab‘ai sayyor ” dostonida esa Alisher Navoiy yolg‘onchi, qalloblarning tipi timsollarini tasvirlab bergan. Ikkinchi iqlimdan kelgan musofir Bahrom Go‘rga

Zaydi Zahhob (zahhob –zargar usta) haqida hikoya qiladi. Zayd podshoning ishochini qozongan mohir usta bo‘ladi. Ammo uning niyati buzuv, davlat molini o‘marib ketish. Shoir unga bunday ta‘rif beradi:

Chun amonatda bediyonat edi,
Ishi shoh moliga xiyonat edi.

Bir kun u shohga hashamatli oltin taxtda o‘tirish sizga yarashadi, deb maslahar beradi va shunday taxtni o‘zi yasab berishini aytadi. Dabdaba –yu shukuhni yaxshi ko‘radigan shoh bunga ko‘nadi va xazinadan bir necha yuz botmon oltinni zargar ixtiyoriga berishni buyuradi. Zargar esa oltinlarni qo‘lga kiritgandan keyin uning asosiy qismini o‘zlashtirib, taxtni kumushdan yasab, ustini oltin suvi bilan qoplab chiqadi. Bundan xabarsiz shoh Zaydni olqishlab unga sovg‘a salomlar ham beradi.

Oltinchi iqlimlik musofir hikoyati qahramonlarining ismi Muqbil va Mudbir. Muqbil –qallob, Mudbir –rostgo‘y demak. Ular birga safarga chiqadilar. Mudbir chidamli, qanoatli, xudoga chin dildan toat –ibodat qiladi. Muqbil esa noshukur, badfe‘l. Ular bir buloq boshiga yetib kelganda, buloq boshidagi toshga yozilgan bitikka ko‘zlari tushib qoladi. Bitikda: “Kimki rostgo‘y bo‘lsa bu buloqdan suv ichib, yuvinsa, rohatlanadi ammo kimki yolg‘onchi, firibgar bo‘lsa, kuyib o‘ladi”, deb yozilgan edi. Shunda Muqbil Mudbir oldida boshqa yomon yo‘ldan yurmaslik yolg‘on gapirmaslikka qasam ichadi. Ular qayiqda dengizda suzayotganda bo‘ron ko‘tariladi. Ko‘p kemalar halok bo‘ladi. Mudbir duosi tufayli qutilib qoladilar. Lekin bu voqeadan ibrat olmagan Muqbil egalari o‘lib yotgan kema va uning ichidagi mol –mulkni egallab oladi, qirg‘oqqa chiqqandan keyin odamlarga o‘zini katta savdogar qilib ko‘rsatib, Mudbirni esa qulim deb tanishtiradi. Muqbil buloq boshidagi qasamini buzgani va yolg‘on gapirgani uchun shu zahotiy oq qorni shishib yorilib o‘ladi. (Voqean, ikkinchi hikoyatdagi Zayd ham siri fosh bo‘lib, zindonga tushadi). Navoiyning xulosasi shuki, odamni buzadigan, beburd qiladigan va oxir –oqibat halokatga eltadigan narsa baloi nafs, boylik hirsidir. Bu hirsga berilgan odam vijdonini ham, xudoni ham unutadi. Uning toat –u ibodati

ham yolg'on. Navoiy "Mabub ul -qulub " asarida rostgo'y, sadoqatli va yolg'onchilarni qiyoslab yozadi: "Tengri do'stlari sidq -u safo ma'danidur, yolg'onchini debdurlarki, Tengri dushmanidur", Tngri dushmanini musulmon deb bo'lmas.

Ulki, shoir ayladi yolg'on demak,

Bo'lmas ani er -u musulmon demak.

Xudoning rasuli Muhammad (s.a.v.) shuning uchun ham "Yolg'onchi mening ummatimdan emas" ("Kazzabuna la ummati) deya xitob qilgan, deydi Navoiy.

Ulug' insonparvar Navoiy insoniylikka munosib bo'lmagan hislatlarni odamlar axloqidan butunlay siqib chiqarish, insonlar ruhini tozalash, qalbini poklash yo'lida butun umri davomida kurashib yashagan. Shuning uchun ham bunday tuban shaytoniy hislatlarga nafrat ko'zi bilan qarab, kishilarni ogohlantirish, to'g'ri yo'lga boshlash uchun o'z asarlarida alohida bu mavzuga to'xtaladi. Navoiy nafaqat o'z zamonasini, balkim kelgusi avlodlarni, bashariyatni ham ogoh etadi. Gohida g'azab bilan yonib gapirsa, gohida nasihat va tashbeh orqali ta'sir etishga urinadi. Albatta yolg'on bir kun kelib fosh bo'ladi. Yolg'onchi sharmanda bo'lishi muqarrar, deb xulosalaydi. Ammo u bu orada ko'pdan ko'p kishilarni xonavayron qilib, jamiyatga katta zarar keltirishga ulguradi. Afsuski, insonlar o'z niyatlarini yashiradilar, ularning qaysi so'zi rost, qaysi biri yolg'on ekanini da'fatan ajratib olish qiyin. Yolg'on ming xil chiroyli "dalil -u isbotlar" yoqimli so'zlar orqali bezab -bejab aytiladi. Alisher Navoiy ana shu yashirin illatlarni oshkor qilish orzusi sifatida rost va yolg'onni ajrim qiluvchi ko'zgu haqida yozadi: "Sab'ai sayyor" dostonidagi 4 -iqlim musofiri podshoga bir ko'zgu tuhfa etadi. Ko'zgu sehrli bo'lib o'z g'ayritabiyy kuchiga ega bo'ladi.

Tuhfa keltirmish edi bir ko'zgu,

Kim oni tutsa har kishi o'tro':

Chin desa aksida safo erdi,

Desa yolg'on yuzi qaro erdi.

Podsho tuhfani olgandan keyin musofirga ko‘p mukofotlar berib, “Qani aytchi, dunyoda eng sahovatli odam kim?” deb undan so‘raydi. Musofir yigit shohdan saxiyroq odamni bilardi, ammo shoh xafa bo‘lmasin deb “eng saxiy odam sizsiz” deya javob beradi. Shunda Podshoh ko‘zguni musofirning yuziga tutadi, ko‘zguda uning yuzi qop –qora bo‘lib ko‘rinadi. Yigitning yolg‘on gapirgani aniq bo‘ladi.

Albatta , bunday odamlarning botiniy dunyosini “aniqlovchi” ko‘zgu, buloq, daraxt, qushlar turli xalqlarning ertaklarida bor. Bu –xalq orzusi, ya’ni yolg‘on, fitnalardan qutulishga vosita qidirish edi. Navoiy nazdida sa ko‘zgu bu yerda – vijdon, odamiylik axloqining mezonidir. Odam hamma vaqt vijdon tarafida turishi va ko‘ngil oynasini pok saqlashi lozim. Shunda rost –u yolg‘on bir –biridan ajraladi, yaxshi –yomon aniqlanadi.

Insonsevarlik g‘oyalari Navoiy ijodida ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Jumladan “Hayrat ul-abror ”da shoir shunday yozadi:

Koni-yu hayvoni agar hod nabot,
Har biri bir gavhari oliy sifat.
Barchasini garchi latif aylading,
Barchadin insonni sharif aylading.¹⁴

Ulug‘ shoir insonga birinchi navbatda hayotdagi faoliyati, kird –u koriga qarab baho bergan. Inson jamiyatga naf keltirish, foydali ishlar bilan qadrli, fafazilatli. Boshqalarga ziyon yetkazadigan jamiyat tinchligi, osoyishtaligini buzadigan, siyrati suratiga mos kelmaydigan kimsalar chin inson emas. “U jamiyatning har bir a’zosidan –shohmi, gadomi Inson nomiga “munosib” bo‘lishlikni talab qiladi”, deb yozadi istedadli olim A.Abdug‘afurov Navoiy haqida. Navoiy buni turli tabaqaga mansub shaxslarning tipik xususiyatlarini o‘zaro zid qo‘yib ochib ko‘rsatgan (odil va zolim shoh, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi va riyokor shayx, olim va johil, vafoli odam va hokazo).

¹⁴Алишер Навоий. Хамса. Танқидий матн. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. Т.: ФА нашри, 1960. 81 -бет

Yaxshilikning, odamiylikning mezoni –bu xalq manfaati uchun ishlash, xalq g‘am-tashvishi bilan yashashdir:

Odami ersang demagil odami,
Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.¹⁵

Shunday qizg‘in ehtiros va hikmatona ohangda aytilgan gaplar “Mahbub ul qulub”da ham ancha. Navoiy shunday o‘zgalari g‘amida yuradigan, himmati baland, hojatbaror, adolatpanoh insonlarni sharaflaydi. Ma’lumki, inson egallagan mavqei bilan konkret shaxsdir. Agar o‘rta asrlarda yashagan kishilarni nazarda tutsak, bu dehqonlar, hunarmandlar, olimlar, ijodkorlar, amirlar, shohlar, savdogarlar va hokazolardan iborat. Navoiy bu toifalarning hammasini “Mahbub ul –qulub ” asarida birma –bir ta’riflagan. Ammo har bir guruhning ham yaxshi – yomon borligini ko‘rsatgan. Ana shu tariqa zid qo‘ib tasvirlash “Hayrat ul – abror”da ham borligini ko‘ramiz. Ulug‘ shoir shuning uchun adolatli va zolim shoh, rost qavl va riyokor shayx, karamli va xasis odam, odobli va beadab kishi, olim va johillar xususida yozadi. Ularning insoniyat jamiyati uchun foyda yoki zararini ko‘rsatib o‘tadi. Masalan o‘n birinchi maqolatda ilmning fazilati va nodonlikning kasofati haqida so‘z boradi. Ammo shoir bobni to‘g‘ridan –to‘g‘ri:

Dahr ishito xalq ila bo‘lmish sitez,
Xordurur olim-u johil aziz.¹⁶ –

Degan bayt bilan boshlaydi Chunki zamona zulmni sevadi, razil, johillarga martaba, mansab pog‘onasiga ko‘tarilish nasib etadi. “bilig ahli”ga esa ranj –u azob:

Fe’l yomon topsa rafi’ aylabon,
Hukmiga olamni mu’te aylabon.

Yomon odam boshqalarni o‘ziga mu’te etsa, yaxshilar, oqil, donolar xor bo‘ladi, la’ldek qimmatli, ko‘ngli pok odamlar “ko‘hi balo ostida g‘amnok” yashaydilar. Navoiy xulqi, raftori darrandalik bo‘lgan nokaslar shoh saroyida izzat,

¹⁷ Алишер Навоий. Хамса. Танқидий матн. Нашрга тайёрловчи Шамсиев. П. Т.: ФА нашри, 1960. 104 –бет

¹⁸ Shu asar, 91 –bet.

hurmatda yashaydilar, deydi. Shoir ilm olishning mashaqqatli azoblarini tasvirlaydi. Qashshoq, och –yalong‘och mullavachchalar ayanchli ahvolda madrasalarda kun –u tun tahsil olib, ilm o‘rganadilar. Maqsadga erishish yo‘lida barcha narsadan, hatto olam ne‘matlaridan ham voz kechadilar:

G‘urbat aro holi yomondan yomon,
Har ne yo‘q andin yomon, andin yomon.¹⁷

Lekin afsuslanadigan va ajablanadigan joyi shuki, deb kuyinadi Navoiy, “bir johili qotilvash” , “so‘zi ham, o‘zi ham noxush” din –u diyonati yo‘q johil odamlar mol –u mulk egasi, mansab –u martabali. Yanada ajablanarlisi shuki, bu razil, nodon odamlar xizmatida necha olim –u donishmand yuradi, mulozimlik qiladi. Navoiy bunday olimlarni yomon ko‘rgan. Shoir agar har qancha muhtoj bo‘lsang ham past, johil kishining xizmatida bo‘lma. Boshingni ko‘tarib ozod yurgin deydi.

Ilmni kim vositai joh etar,
O‘zini –yu xalqini gumroh etar.

Ilm amal, mansab vositasi emas, balki xalqqa xizmat qilish qurolidir. Olim kishi dunyo moliga mehr qo‘ymasligi kerak:

Solmasa ko‘z jaffari dunyo sari,
Boqmasa ko‘z donyai foni sari.
Oni sharaf gavharidin koni bil,
Gavhari kon har he desang , oni bil.

Shu tariqa ko‘ramizki, Alisher Navoiy insonning muhim fazilatlaridan biri sifatida bilimdonlikni ko‘rsatadi. Bu yerda muhimi shuki, Navoiy konkret suratda o‘z davrining voqealaridan kelib chiqib, notavon, kambag‘al bolalar uchun ilm –u urfon egallashning nihoyatda qiyin ekanligi, eng yomoni shu azob bilan bilimdon bo‘lganlar xor, nodon va razillar esa rohatda yashashini bir dard alam bilan tasvirlagan shoirning jamiyatning notekisligi, adolat yo‘qligini ochiq –oydin yozishi Navoiy insonparvarligining qudratini oshirgan, uning g‘oyalari hayotiroq,

¹⁹ Shu asar, 91 –bet.

ta'sirliroq bo'lib chiqishini tamin etgan.¹⁸ Olam bino bo'libdiki, zolimlar zulmni, mazlumlar ohi, munofiqlar kirdikori, xudparastlar ozori tugamaydi. Charx kajravtor, dunyo buqalamun, ahli zamon bevafo...

Buyuk qalb sohibi ayovsiz bedodlilardan iztirob chekadi, ziddiyat girdobida jumbushga kelib, beixtiyor faryod ko'taradi:

“Davr bevafolari javridin dod va dahr behayoliklari zulmidin fig'on –u faryod. To olam binosidur, bu o'tg'a hech kishi mencha o'rtanmaydur, to bevalig' ibtidosidur bu yolinda hech kim mendek churkanmaydur. Zamon ahli bevafolig'idin bag'rimda tikanlar, har qaysig'a raqam uray desam Ayyub sabri anga vafo etmas va qalam suray desam, Nuh umrida tamomg'a yetmas. Xaq alarg'a rahm va insof sari tavassul bergay va bu mahrum jafokashg'a sabr va tahammul”.¹⁹ Samimiy qalbdan otilib chiqqan faryod va iztiroblar go'yo hikmat durlari kabi “Mahbub ul –qulub” sahifalariga to'kiladi. Ulug' insonparvar faqat iztirob tortish bilan cheklanmaydi, hikmat kamarini mahkam bo'g'lab, ziddiyatlar maydoniga tushadi. Yaxshilarni olqishlab, yomonlarga tanbeh berib, g'ofillarni g'aflatdan, nodonlarni kulfatdan xalos etmoqni o'zining ulug' vazifasi deb biladi.

“Mahbub ul –qulub ”ning uchinchi qismi “Mutaffariqa favoyid va amsol surati” (turli foydali maslahatlar va maqollar) deb nomlangan. Bu bo'limda odob va axloq masalalariga doir to'rt yuzga yaqin maqol va hikmatlar so'zlar, tanbehlar shaklida qo'llanilgan bo'lib, adib ular orqali kishilarga pand –nasihat berib, go'zal insoniy fazilatlarni egallashga, yomon illatlardan saqlanishga, ilm o'rganishga, yaxshilarga yor, muhtojlarga madadkor bo'lib, xalq va Xoliq oldidagi burch va vazifalarni ado etishga da'vat etadi.

Buyuk mutaffakir ezgu ideallar va porloq orzular cho'qqisidan turib insonga nigoh tashlaydi. Olam va odam qusurlarini birma –bir tahlil qiladi. Olamni go'zal, odamhi benuqson ko'rmoq istagi bilan yonadi. “Sahvu xato bashariyat lozimidur. Xato sahvin anglab mutanabbih bo'lg'on sahovatmand odamiydur. Xatosin zoyil

²⁰Муслихиддин Мухиддинов. Икки кутб муштараклиги. Навоийга армуғон. илмий мақолалар тўплами. (бешинчи китоб) Низомий номидаги ТДПУ, 2006. 39 –47 –бетлар.

²¹Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 14 –том . Т.: “Фан”, 1998, 83 –бет.

qilur, ulki, e'tirof sari qaytg'ay va ul muof qilur, ulki dalil ijro qilib, harza aytg'ay . Mubolag'asi necha ko'prak -sahvipaydoroq va muqobarasi necha ortuqroq –o'zi elga rasvoroq ”²⁰. Adibning fikricha xato qilish odam bolasiga xos xususiyatdir. Lekin xatosini anglab yetgan kishigina saodatlidir. Kimki o'z xatosini tan olishni istamay, behuda chiranishni odat qilar ekan, uning gunohi yanada ortib, el ichra rasvo bo'ladi. ²¹ Navoiyning ishq zimmasiga yuklagan ma'nosi juda katta va chuqur: uinsonning insonga bo'lgan ishqinigina kuylab qolmasdan (buni Navoiy maloziy ishq deydi), ayni choqda haqqa –xodoga bo'lgan ishqni ham mehr, e'tiqod bilan ifodaladi. (buni haqiqiy ishq deydi). Majoziy ishq haqiqiy ishq sari tashlangan ilk qadamdir. Ruhiy pok, komil insongina xudoga yetishishi mumkin. Bir g'azalida Navoiy “Majizdin menga maqsud erur haqiqiy ishq” deydi. Bu so'fiyona fikrni bir qit'asida yana quyidagi tarzda aytadi:

Ey Navoiy, ko'r majoziy ishq ila ma'shufsan,
O'tkil andin dog'i ishq haqiqiy sori bot.

Navoiy o'zi chin musulmon bo'lgani va asarlarida “Qur'on” va hadislar g'oyalariidan mo'l –ko'l foydalangani hamda “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Nasoyimul -muhabbat” asarlarini yozgani holda dinni niqob qilib elni aldagan, g'irromlik bilan boylik yiqqnalar va nopok ishlar qilgan riyokor shayxlarni, soxta ruhoniylarni qattiq tanqid qiladiki, bu narsa ham ulug' shoirning g'oyat adolatli bo'lganligidan yana bir dalolatdir(“Shayx” radifli g'azali). Navoiy “Lisonut –tayr”, “Farxod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarida so'fiyona g'oyalarni keng targ'ib etgan. S.Olimov “Ishq, oshiq va ma'shuq” kitobida (1992) “Lisonut – tayr”ni “Sof tasavvufiy asar”dir, “Fanoga yetish yo'llari sharhlangan o'ziga xos bir badiiy risola”dir deydi.

Alisher Navoiyning yuksak talanti “Xamsa” asarida yanada ravshanroq, to'laroq namoyon bo'ladi: “Xamsa ” yozish sharq xalqlari adabiyotida an'anaga aylangan bo'lib, qirqqa yaqin ijodkor bu sohada o'z qalamini sinab ko'rgan.

²² Shu asar .110 –bet.

²³Машарипова Зиёда. “Махбуб ул –клуб ” ҳикматларида халқ мақоллари. (илмий тўплам)Т.: 2006. 77 -79 – бетлар.

Shulardan to‘rt dahoning asari yetuk, o‘ziga xos , betakror asar sifatida tan olingan: bular Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar “Xamsa”sidir. Navoiy “Xamsa” si eng avvalo turkiy tilde bo‘lishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi zotlarning “Xamsa”lari forsiyda edi. Navoiyning o‘zi:

Forsiy o‘ldi chu alarg‘a ado,
Turkiy ila ani qilsa ibtido.
Forsiy el topdi chu xursandlik,
Turk dog‘i topsa barur mandlik, -dedi.

Navoiy “Xamsa”siga kirgan dostonlar “Hayratul –abror” (“Yaxshilar hayrati”), “Farhod av Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab‘ai ayyor” va “Saddi Iskandariy”dir. Garchand Bu asarlar bir –biridan mazmuni, yo‘nalishi, ohangi, shakli jihatdan farq qilib tursalar –da , masalan, “Hayratul –abror” –didaktik pardada, “Farhod va Shirin ” qahramonlik, “Layli va Majnun” fojeaviy pardada, “Sab‘ai Sayyor” sarguzasht sujetlar asosida axloqiy –ramziy va “Saddi Iskandariy” ijtimoiy –siyosiy pardada yozilgan bo‘lsa –da, biroq ichki mohiyati pafosi, olg‘a surilgan fikr, g‘oya, orzu –armon, ijodkor ideali nuqtai nazardan o‘zaro bog‘liqdir, yaxlitdir. Go‘yo “Hayratul –abror” da fozil jamiyat va barkamol inson, adolatli va zolim shohlar, Insonni inson sifatida ko‘rsatadigan shaxsiy fazilatlar va unga zid yomon sifatlar sevgi, muhabbat, sadoqat, do‘stlik va zulmkorlik, pastkashlik, xiyonatkorlik, nopoklik, brir so‘z bilan aytganda yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik to‘g‘risidagi qarashlari, qolgan dostonlarda aniq inson taqdiri ko‘rsatilgandek. Zotan aslida shunday ham. “Hayratul -abror”da jamiyatning barcha ijtimoiy tabaqalarga baho beradi, ularning sifatlarini tariflaydi, keying dostonlarida odamlarni shu mezon bilan taroziga tortadi. Aytaylik unda vafo to‘g‘risida ajoyib fikrlar aytadi, “Farhod va Shirin”da esa qahramonlik va vafodorlikka madhiya yaratadi, “Layli va Majnun”da ishq o‘tida yongan ikki yoshni ko‘rsatadi; 17-maqolada Bahrom to‘g‘risida gap ochadi “Sab‘ai Sayyor”da Bahrom taqdiri asaridagi hikoyalarni, sarguzashlarni keltirib chiqaradi, ularni o‘zaro bir –biri bilan bog‘laydi; “Hayratul -abror”da Iskandarning yetti iqlim

mamlakatini o‘z qo‘liga kiritgani va bo‘sh qo‘l bilan u dunyoga ketgani haqida so‘zlaydi²². “Saddi Iskandariy”da bu chiziq asarning markaziy masalasini, o‘q tomirini tashkil etadi. Dostondagi Shirin va farhodlarning bir –biriga yuborgan maktublari, ularning muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari to‘la qalblarning tiniq ko‘zqusidir. Shirin “tikon kirsam kafing‘a kinasidan chiqarmas erdi, kiprikn ignasidin”, “ko‘rub xor –u ornungda, nihoniy sochim birla, supursam erdi oni”, deydi, bu qizning o‘z oshig‘iga bo‘lgan cheksiz mehr –muhabbatining sharqona ifodasidir. Agar “Farhod va Shirin” bilan “Layli va Majnun” bir –biriga muqoyasa qilinsa, “Layli va Majnun”ning boshdan oyoq muhabbatga bag‘ishlanganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shoir muhabbat erki, inson erki masalasini juda chuqur va teran badiiy talqin etib, oshiq –mashuqlarning jismonan bir –birlariga yetisha olmasligining saba bi(ular ruhan birlashgan edilar) ijtimoiy tengsizlikda – “boy boyga boqar, suv soyga oqar” maqolidagi haqiqatda ekanligini ko‘rsatadi. Navoiy o‘z orzu –armonini Iskandarning shohlik lavozimini qabul qilish jarayonidagi holatini tasvirlashorqali ochiq aytadi. Iskandar otasidan keyin shohlik tojini kiyishi kerak edi. Uch kun u ko‘nmaydi, xalq iltimos qiladi. Shunda Iskandar shoh qanday bo‘lishi kerak, degan savolga javob beradi, bu xususidagi o‘z qarashlarini birma –bir sanaydi “Har ishda zamon ahlining talablariga javob beradigan odam bo‘lsa”, “aql zakovati quyoshdek munavvar”, “adolat bobida navruz faslidek, siyosatda esa jahonni kuydiradigan yashindek bo‘lsa”, “mashaqqatli kezlarda dushmanga chora qo‘llovchi, og‘ir kunlarda ko‘mak beradigan adolatpesha bir zot bo‘lsa” deydi. Davom etib “Bordi –yu devonbegisi fuqaroga sitam qilsa, uning qo‘lini kesib tashlasin, musofirlar qatnovi to‘xtatilsin”, “o‘g‘rilarni tutib, ularning nopok qo‘lini qirqsin ”, “zulm, bedodlik odatlari tamoman yoqqa chiqarilsin”, “hatto zulm degan iboraning o‘zi el orasida bo‘lmasin!” deydi (dostonni nasrga aylantiruvchi Inoyat Mahzum).

Iskandar xalq talabiga ko‘ra toj kiyadi va o‘zini “insof va adolat tayanchi ” deb his qiladi. U zolimlarni jazolaydi, adolatsiz hukmdorlarni yo‘q qiladi. Avval

24. Абдурахмонов Ф., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: Ўзбекистон, 2002, 198 -203 бетлар

nohaq chiqarilgan qonunlarni bekor qiladi, bozordagi narx navoni tartibga soladi, Tarozining toshlarini temirdan yasatib muhrlatadi, uzunlik o'lchovlarini ahm temirdan qildiradi, yo'llarga qorovullar qo'yadi, xullas, "adolat zamon bunyod etadi" Iskandar amaldorlar, askarlarning birovdan bir qarich ip loishiga yo'l qo'ymaydi. Shoh raiyati o'zidek ko'rinishi lozim:

Xaloyiqqa ko'rma, qilib benavo,
O'zingga ravo ko'rmaganni ravo²³.

Navoiy Iskandarning o'limini ham adolat, haqiqat bilan mol –dunyoning bevafoqligi, umrning o'tkinchiligi, poklik, haqqa e'tiqod masalasi bilan jips bog'laydi. Iskandar butun olamni, qurug' –u ho'lni zabt etadi, ammo unga "nima bergan bo'lsa hammasini qaytarib oldi –da o'zini ham halok qildi". Iskandar o'limi oldidan onasiga maktub yozib, shunday iltimos qiladi: "Va lekin meni tobutga yotqizgan paytingizda yoqut teshigidan ipni chiqazib qo'yilgani kabi, albatta bir qo'limni tobutdan chiqazib qo'ying. Toki xaloyiq bu qo'lga hayrat ko'zi bilan emas, balki ibrat ko'zi bilan boqib, "bu panjalar saf tortib, yer yuzini o'z qo'lga ilgan edi, mana endi bu qo'llar dunyodan shol kishining qo'liday quruq, chinorning yaproqsiz butog'iday bo'm –bo'sh ketayotir!" desinlar. Bu hol odamlar uchun bir ibrat maktabi bo'lib, dunyoni egallash mashg'ulotidan qo'llarini tortsinlar"²⁴.

Navoiy badiiy ijod bilan shug'ullanishdan tashqari davlat ishlari bilan band bo'lgani uchun emas, o'z xalqini sevgani, ona tuprog'ini ardoqlagani bois o'z qarashlarini bayon etadi. Iskandar obrazining xarakterli tomini ham aynan shundadir.

²³ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 16 –жилд, Тошкент: Фан, 2000. 26 –б.
²⁴ Абдуқодиров А. "Садди Искандарий". Анана ва ўзига ҳослик. // Ўзбек тили ва адабиёти. . № 1, 19 –б.

II BOB. Alisher Navoiyning ma'naviy taraqqiyotdagi o'rni va mavqeyi

2.1. Navoiy asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari

Navoiy "Xamsa" sining birinchi dostoni "Hayrat ul-abror" deb ataladi. 1483-yilda yozib tugallangan bu doston to'rt ming bayt(sakkiz ming misra)ni o'z ichiga oladi. Doston nomining o'ziyoq uning aynan "nazira" sifatida yozilganligini ko'rsatadi. Bu nom bilan salaflar dostonlari nomlarini qiyoslaymiz:

Nizomiy:	"Mahzan ul-asror"
Amir Xusrav:	"Matla' ul-anvar"
Jomiy:	"Tuhfat ul-ahror"
Navoiy:	"Hayrat ul-abror"

Ko'rinadiki, har to'rtala nom ham quyidagicha tasvirlash mumkin bo'lgan bir ritmik chizma asosida qurilgan:

— ~ — —

Shuningdek ikkinchi so'z har to'rtala nomda ham qofiyalangan: asror-anvor — ahror — abror.

Navoiy vazn tanlashda ham erkin yo'l tuta olmagan. Nizomiy o'zining birinchi dostoni uchun qanday vazn tanlagan bo'lsa, u ham aynan aruzning "sare" deb ataluvchi vaznini tanlashga majbur bo'lgan.

Doston turli hajmdagi 64 bobdan iborat.

Davr talabiga ko'ra birinchi o'n bir bob hamd va na'tlarga ajratilgan. o'n ikkinchi bobda Nizomiy va amir Xusravning xizmatlari qayd etilgan, o'n uchinchi bob Jomiy vasfiga bag'ishlangan. Keyingi ikki bobda o'ta muhim mavzu qalamga olingan: ular so'zning ahamiyati va kishilik jamiyati hayotida tutgan o'rni haqida so'zlaydi. Bu mavzuni Nizomiy Ganjaviy ham ishlatgan, lekin bu yerda Navoiy so'z ma'nosi va uning mazmuniga berga e'tiborni alohida ta'kidlash joiz.

Bu boblardan keyin Sulton Husayn madhiga bag'ishlangan bob, so'fizm falsafasining ayrim tamoyillarini bayon qiluvchi to'rt bob va kirish qism keladi.

Doston naqshbandiya tariqati asoschisi shayx Bahovuddin Naqshband madhi bilan tugaydi.

Dostonning asosiy qismi Nizomiy dostonidagi kabi “Maqolot” deb ataluvchi 20 bobga bo‘linadi. Salaflarniki kabi har bir maqolot 2 qismdan iborat: nazariy va bobning asosiy g‘oyasini misol bilan tushuntirib beradi. Boblar mavzulari ham ularga keltirilgan misollar Nizomiy va Amir Xusrav dostonlari mavzulai bilan deyarli hech qanday umumiylikka ega emas va batamom oroginaldir. Navoiy o‘z oldiga qo‘ygan vazifa –axloqning tamoyillarini yoritish va ularning hayotga tatbiq etilishini ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan. Uchinchi bobdayoq podshohlik hokimiyatini tavsiflar ekan, Navoiy o‘z davri tamoyillarini keskin tanqid qiladi. U shohlarga murojaat etib shunday deydi:

Eyki qavat ayladi davlat qo‘ling,
Zulm sori tushti va jekin yo‘ling.
Zulmung emas erdu xaloyiqqa kam,
Kim qiladursen ani o‘zungga ham.
Zulm o‘zunga fisqdur, ey xushyor,
Kam qil oni bo‘lsa sanga hush-u yor.
Chunki farax bazmiga jazm aylading,
Aysh-u tarab azmig‘a bazm aylading.
Qasrki bazm anda muhayyo bo‘lib,
Ziynati Firdavs muallo bo‘lib.
Pardalari rishtasi el jonidin,
La‘li-yu shingarfi ulus qonidin.
Shamsasi el moli bilan zarnigor,
El duru la‘li ila chavhar nigor.²⁵

Ey (podshoh) sening qo‘ling butun davlatni qat -qat qilib yig‘di va sen zulm yo‘lini tanlading. Sening zulming xaloyoqqa kamlik qilsimi, aslida sen bu

²⁷ Bertels Y.E.Navoiy. Monografiya. Tarjimon Mirzayev I.K. f.f.d.,prof.- T.: “Tafakkur qanoti”, 2015.200-218-betlar.

zulmlarni o‘zingga ham qilasan. Agar seni aql-u hushing joyida bo‘lsa, senda or bo‘lsa xalqqa zulmni kamroq qil. Sen farax bazmiga jazm qilding, xursandchilikka berilding, bu shunda qasrki, unda bazm muhayyo, unda Firdavs bog‘i ziynati ham muhayyo qilingan. Qasrning pardalari tolalati elning jonidan bunyod qilingan. Undagi shirinliklar ulusning qonidan qilingan. Elning mol –u davlati ichini bezab turibdi.

Ushbu misralarda Navoiy qoyilmaqom o‘xshatishlardan foydalanib, podshohning nafsga berilganda qay ahvolga tushib qolishini tasvirlaydi. Baytlarda keltirilgan qasr va undagi bazm ayni zolim shohning ichki dunyosi ekanligini payqab olish mushkul emas. Shoh mol-u davlatga ushib, boylik yo‘lida o‘z xalqiga zulm qilsa, aysh- ishratga berilib yurt manfaatini o‘ylamas shunday ahvolga tushishini “Xamsa”ning oxirgi dostoni “Sab’ayi sayyor”da ham uchramiz. Navoiy shohlik haqidagi fikrlarini “Hayrat ul- abror”da boshlab, “Sab’ayi sayyor”da to‘liq dalillash orqali tugallaydi.

“Hayrat ul -abror”ning beshinchi bobi haqiqiy sahiylik va juvonmardlik shakllari, ularda namoyon bo‘lishi lozim bo‘lgan fazilatlar haqida so‘zlaydi. Oltinchi bob esa to‘liq tarbiya haqidadir. Navoiy to‘g‘ri tarbiya, bolada kamtarlikni shakllantirish, takabburlik va soxta mag‘rurlikni tak-tomiri bilan sug‘irib tashlash lozimligini ta’kidlaydi. Quyidagi misralar fikrni aynan dalillaydi:

Qilmoq erur biri muallim talab,
Qilg‘ali ta’lim anga ilm-u adab.
Itga taallumda chub bo‘ldi kamol,
Sayd aning og‘zidin o‘ldi halol.
Olim ul itkim, najas ul-ayn erur,
O‘g‘lingga jahl o‘lsa ajab shayn erur.

Keyingi yettinchi suhbat qanoat, taqdirda bori bilan chegaralanish, tekin daromad izidan ochko‘zlarcha quvmaslik lozimligi haqida gapiradi. Bu yerda o‘zbek xalq ertaklarida keng tarqalgan ohang (motiv) asosida yozilgan hikoyat juda qiziqarlidir:

Fors navohisidin ikki rafiq,
Ayladilar Chin sori azmi tariq.
Biri azal qismig‘a qoni’ edi,
Qismidin ortiq biri tomi’ edi.
Borur edilar qilibon po‘ya fosh,
Bo‘ldi ayon yo‘l uza bir soda tosh.
Yorimi yerda, yorimi yoqqori,
Ul yorimidaki bo‘lib toshqori.
Nuktai bas turfa qozilg‘on edi,
Chun o‘qudilar –bu yozilg‘on edi:
“Kim kishi gar emgak o‘tun yondurur,
Toshni yana yuzig‘a aylandurur.
Anda bitikdur afsonae,
Kimbu navihiy aro vayronae.
Borki ostida erur turfa ganj,
Olg‘ay ani har kishi ko‘rsa bu ranj.
Har kishi bu ranjdin o‘lsa yiroq,
Sabr-u qanot boridin yaxshiroq”.
Tomi’ o‘qig‘och mutahattik bo‘lib,
Tomia irqi mutaharrik bo‘lib.
Ganj tamannosig‘a berkitti tish,
Bo‘ldi anga tosh tubin qozmoq ish.
Qoni’ ul ishga chu nazar ayladi,
Qilmadi parvoyu, guzar ayladi.
Dedi bu ne mehnati jonkoh erur,
Ganji qanoat manga hamroh erur.
Kim sorikim tengrining ehsoni bor,
Tosh yorilib chiqmog‘I imkoni bor.

Yo‘ldin olib kecha tong otquncha bahr,
Subhidam olindi ayon bo‘ldi shahr,
Shahrg‘a el kirgali ko‘p yo‘l erdi,
Ulki butun kirdi, vale ul edi.
Bor edi darvozag‘a surmak hamon,
Harsoridin xalq yugurmak hamon.
Bu el aro rasm bu ermishki shoh,
Qilsa baho mulki sori azmi roh.
Asrab ani shahr eliding yoshurun,
Kimki sahar shahrg‘a kirsas burun,
Aylar emishlar ani masnad nishin,
Boshig‘a toj, ilgiga solib nigin.
Oni ham ul ul rasm ila hayl-u sipoh,
Qildilar ul mulki sipoh uzra shoh.
Yoriki ranj o‘ziga olib edi,
Ganj tamannosi g‘a qolib edi.
Ranj bila yeti chu o‘z jonig‘a,
Toshni evurdi yana bir yonig‘a.
Xatqa boqib ko‘rdi bu mastur erur,
“Xom tama’ dahrda ranjur erur”.
Oni qanoat qilibon shahriyor,
Muni tama’ ranji qilib xorsor.

Biz bu yerda ertak uchun xarakterli bo‘lgan yozuvli tosh va shahar darvozasidan birinchi kirgan kishining podshoh etib ertaknamo ko‘tarilishini ko‘rishimiz mumkin. Ertak ohangi to‘liq saqlangan va shuning uchun ham namuna sifatida keltirilgan misollar, ayniqsa, ishonchli jaranglaydi. Ertak voqeasi qiziqarli bo‘lib, unda ikki fors yigiti Chin mamalakati tomon sayohatga otlanadi. Yo‘lda oldilaridan bir yirik tosh chiqadi. Toshning yarmi yerga ko‘milgan, yarmi esa yer ustida bo‘ladi. Toshning atrofi turli qazilgan edi va unda yozuv bor edi: Toshning

ostida turli xil ganj –boyliklar bordir, har kim mashaqqat bilan toshni yana yuzini aylantirsa boyliklarga ega bo‘ladi, ammo kimki bu ishdan yiroq, boriga qanoat qilgan yaxshiroq” degan ma’nodagi so‘zlar uchraydi. Tomi’ buni o‘qib tez va oson boyib ketish mumkinligini o‘ylaydi va ishga kirishadi, Qoni’ esa bu ishga qo‘l urishni istamaydi va xudo berganiga qanoat qilishini aytib, o‘z yo‘lini davom ettiradi. U bir mamlakatga birinchi bo‘lib darvozadan kiradi va uni o‘sha yurtning podshohi qilib tayinlashadi. Uning hamrohi esa oson va peshona terisiz topiladigan, tekin boyliklarning ortidan quvib o‘z joniga jabr etadi.

Sakkizinchi suhbat vafo –jamiyat mustahkamligini ta’minlovchi insoniy sifat haqida so‘zlaydi. Shoir inson jamiyatdan uzilgan holda yakka o‘zi yashay olmasligini, erishiladigan barcha yutuqlar jamoaviy harakatlak natijasi ekanligini takidlaydi:

Har kishi olamda erur yorsiz,
Bir sadafedur duru shahvorsiz.
Yo‘q hunari yolg‘iz esa, o‘z kishi,
Qayda kishi sonida yolg‘uz kishi.
Fard kishi davrida topmast navo,
Yolg‘iz ovuchdin kim eshitmish sado.²⁶
Yorsiz el ohi g‘am anduderur,
Yonsa yig‘och yolg‘uz ishi dud erur.
Toq kishi ayshi uyin bil nigun,
Uyga qachon homil o‘lur bir sutun.
Ushbu sifat yorki marqum erur,
Voyki, bu davrda ma’dum erur.

Bu o‘rinda Navoiy kishi dunyoda hamrohsiz, ya’ni, jamiyatdan tashqarida bo‘lsa xuddi ichi bo‘sh dursiz sadafga o‘xshashini yozadi. Agarda insonning o‘z hunari bo‘lmasa u insonlar orasida ham yolg‘izdir. Do‘st –u yorsiz bo‘lgan elning g‘am –anduhi bo‘ladi. Birgina yog‘och yonmaydi, faqat dud bo‘ladi. Ushbu

²⁶Bu o‘rinda xalq maqollaridan qo‘llanilgan bo‘lib, qarsak bir qo‘ldan chiqmasligi ma’nosi anglashiladi

asarda shunday hikmatli soʻzlar keltirilganki, kitobxonning xotirasida abadiy saqlanib qoladi, kishi ruhini poklaydi, maʼnaviy olamini yangilaydi. Alisher Navoiy “Mahbub ul qulub” asarida shunday masnaviyini keltiradi:

Gahi topdim falakdin notavonligʻ
Gahi koʻrdim zamondin kamronligʻ
Base issigʻ, sovugʻ koʻrdim zamonda
Base achchigʻ, chuchuk totdim jahonda.

Darhaqiqat Navoiy bobomiz oltmish yoshni yashab, shu oʻtgan umri davomida koʻrgan- kechirganlarini tahlil qilib kelajak avlodlarga shu toʻrt qator masnaviy orqali hayotdan saboqlar beradi. Bir inson butun umri davomida goh xursand, goho gʻamli, baʼzan achchiq, baʼzan chuchuk, baʼzida esa totli kunlarni boshidan kechirishi haqida chuqur falsafiy mushohada yuritadi. Navoiyning har bir misrasi bugunimiz va ertangi kunimiz bilan chambarchas bogʻliqdir.

Xush soʻzga kim oʻlsa mast u- behush
Sharbat aro zahrni qilur noʻsh

Ushbu baytda Navoiy yaxshi gapni sharbatga oʻshatadi. Ammo shirin soʻz ham sharbat tusidagi zahar boʻlishi mumkinligi haqida ogoh etadi. Yaxshi soʻz eshitib oʻzini yoʻqotgan inson sharbat deya zaharni ichishini chiroyli oʻshatishlar orqali kitobxonga yetkazib beradi.

Alisher Navoiy “Mahbub ul qulub”da tilga oid, chin gapirmoq va yolgʻon soʻlamoq, oʻlamay soʻzlashning oqibatlarini misollar keltirib dalillaydi va ellinginchi tanbihda shunday yozadi:

Har kimki soʻzi yolgʻon, yolgʻoni zohib boʻgʻoch uyolgʻon. Yolgʻonni chindek aytquvchi suxanvar, kumushni oltin roʻkach qiluvchi zargar. Yolgʻon afsonalarda uyqu keltirgʻuvchi, yolgʻnchi uyquda takallum surgʻuvchi. Yolgʻon aytgʻuvchi gʻaflatdadur, soʻzning asnofi bagʻoyat choʻqdur, yolgʻondin yamonroq sinf yoʻqdur.

Xolbuki, kim yolgʻon gapirsa uning soʻzi albatt bir kuni fosh boʻladi va u barchaning oldida beburd boʻlib uyalib qoladi, shunday kishilar borki, yolgʻon

gapni ham xuddi chindek aytadi va shu qatorda ularni kumushni oltin deb ro'kach qilib turib oladigan zargarga qiyoslash mumkin. Afsonalarda yolg'on uyqu keltiruvchi deb qaraladi. Yolg'on gap kishini g'flat uyqusiga soladi, chunki so'zning qudrati cho'qdek o'tkirdir. Yolg'ondan yomonroq sinf yo'qdir.

Navoiy o'z fikrini kitobxonga yetkazib berish uchun ta'sirchan va sodda o'shatishlardan foydalanadi, yolg'onchilik kishiga ziyondan boshqa narsa emasligini qayta-qayta uqtiradi. Navoiy bundan besh yuz yil avval yashab ijod etgan, lekin asarda aytilgan gaplarni bugun biz bobo-buvilarimizdan, ota-onamizdan, ustozlarimizdan ham eshitamiz, uning tarbiya maktabi cheksizdir. Demak, Navoiyning buyuk ijodi, bitmas-tuganmas ma'nolarni o'izda jo aylagan badiiy merosi kelajakda ham ming yillar davomida avlodlarga asqotadi.

Maktab yoshidagi o'quvchilar ustozining har bir aytgan gapini yodda saqlashga harakat qiladi, xotirasiga abadiy muhirlaydi. Badiiy asarlar ta'lim va tarbiyaning asosiy negizi, o'qituvchi asarlarning tub negizini o'quvchilarga yetkazib bera olsa, uning eng katta yutug'i sanaladi. Biz yoshlar, bo'lg'usi pedagoglardan buyuk mutaffakir bobomizning tayyor ilmiy-badiiy merosini kelajak avlodlarga to'la- to'kisligicha yetkazib berish talab etiladi. Hazrat Navoiyning har bir aytgan jumlasini olam-olam ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Uning ijodini o'rganish har bir o'quvchiga keng qamrovli, yuksak bilimlar berad. Mutaffakir bobomizning qay bir asarini qo'limizga olmaylik, albatta, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan turli- tuman voqea hodisalar, inson ruhiyati, ichki dunyosi, ma'ishiy hayotdagi qusurlar hamda ularni bartaraf etish yo'llari borasida yozilganligining guvohi bo'lamiz.

2.2. Navoiy hikmatli soʻzlarining mazmun- mohiyati, umrboqiyli

Navoiy ilm-maʼrifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan. Shoir insonning maʼnaviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi boʻla olganligida deb biladi. Ilm oʻzidan oʻzi boʻlmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega boʻla oladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy hikmatlarida olam- olam maʼno mujassamdir. Uning hikmatlarida ilm-maʼrifat, mehr- oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy oʻrinni egallaydi.

Birovkim qilsa olimlarga taʼzim,

Qilur goʻyoki paygʻambarga taʼzim.

Shoir olim ahlini qadrlaydi, ulugʻlaydi. Olimlarga taʼzim qilish- paygʻambarga taʼzim qilish bilan barobar ekanligini taʼkidlaydi. Jumladan:

Oz-oz oʻrganib dono boʻlur,

Qatra-qatra yigʻilib daryo boʻlur.

Navoiy kishi bilimga ega boʻlishi uchun oz-ozdan oʻrganib borishi lozimligini, bilimlari yigʻilib maʼlum koʻnikmaga ega boʻlishi mumkinligini yozadi va buni tomchi-tomchi sivilar yigʻilib daryoga aylanishiga oʻxshatadi.

Haq yoʻlinda kim senga bir harf oʻqitmish ranj ila,

Aylamak boʻlmas ado aning haqin yuz ganj ila.

Ushbu jumalarda birinchi ustoz haqida gap boradi. Ilk ustoz tolibiga savod chiqarishida koʻmaklashadi, bu bilan uning hayot yoʻlini- toʻgʻri yoʻlni belgilab beradi. Ustozning bu xizmatini yuzlab xazinalar bilan ham toʻlay olmaslikni Navoiy shu ikki misrada bayon qiladi.

Bordurur inson zotida oncha sharaf,

Kim yamon axloqin etsa bartaraf.

Kimki yomon odatlardan voz kechsa, yomon xulqlarini bartaraf etsa olqish oladi, inson uchun eng yuksak sharaf ham shudir. Bu hakmatli soʻzida shoir insonga xos boʻlgan yaxshi hislatlarni uygʻotishga undaydi, feʼl- atvorimizdagi yomon axloqlarni yoʻqotishimiz sharafli ish ekanligini takidlaydi.

Tengriki insonni qilib ganji soz,

So‘z bila hayvondin anga imtiyoz.

Tangrimiz insonni har tomonlama yetuk qilib yaratdi. Unga zabon ato etdi va uni shu jihati bilan hayvondan farqlanishini in‘om etdi. Shoir ushbu falsafiy fikrlarni bayon etishda so‘zlardan ustalik bilan foydalanadi. Bu esa hikmatlarda mujassam bo‘lgan fikrlarning umrboqiyiligini, inson borki ular ham mavjud bo‘lishini, xalq orasida doimiy yashashini taminlaydi.

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,

Jismni qil sadqa ano boshig‘a

Yaratganing huzuriga boshingni fido ayla, uning boshiga jisming sadqa bo‘lsin.

Navoiy bu baytida tangri taoloning buyukligi oldida jonni fido qilishga ham tayyor bo‘lish kerakligi, ollohga iymon keltirishi va ul zot bunga loyiq ekanligini bayon qiladi. Navoiy hayot haqida shunday bebaho falsafiy fikrlarini bayon etadi:

Xushdurur bog‘i koinot guli,

Barchadin yaxshiroq hayot guli.

Navoiy butun koinotdagi gullar tengsizligini ammo, hayot guli- tiriklikning o‘zi ularning hammasidan a‘lo ekanligini uqtiradi. Bu bilan u yashashning o‘zi baxt ekanligini, tiriklikning oldida qolganlari keying darajada turishini, inson bu hayotda nafas olib turganligiga ollohga shukronalar keltirishi lozimligini qisqa biroq ta‘sirchan jumlar bilan ifodalaydi,

Biz bilamizki, mumtoz adabiyotda lirikaning asosiy mavzusi bu ishq-muhabbat. Shunday ekan, Navoiy lirikasini ham bundan mustasno deb ayta olmaymiz. Hayot lazzati va shodlikni kuylagan shoir sevgini hayot va shodlikning manbayi, uning muhim uzvi deb biladi. Uning quyidagi hikmatli so‘zlarida ham ishq haqida shunday deyiladi:

Bo‘lmasa ishq ikki dunyo bo‘lmasun,

Ikki jahon demaki, jon bo‘lmasun.

Ushbu bayt barchaga tushunarli bo‘lgan tilda yozilgan bo‘lib, unda agar dunyoda ishq- muhabbat mavjud bo‘lmasa, u dunyo-yu, bu dunyoning

bo‘lmasligi, hatto jonning o‘zi ham ishqsiz keragi yo‘qligini yozadi. Bu yerda ikki jahon deyilganda biz yashayotgan foniy dunyo va oxirat nazatda tutiladi.

Alisher Navoiy xalq manfaati bilan xalqning dardi bilan yashagan davlat arbobidir. Navoiyning quyidagi to‘rtligidan shunday hikmatli so‘zlar joy olgan:

To hirs-u havas xirmani barbod o‘lmas,

To nafs-u havo qasri baraftod o‘lmas,

To zulm-u sitam joniga bedod o‘lmas,

El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas.

Navoiy bu o‘rinda insonda hirs va havas ado bo‘lmasligini, nafs-u havo qasri yiqilmasligini, buzilmasligini, jon zulm va sitamga bardosh bera olasligini qayd etib, agarda el shod bo‘lmasa, mamlakat ham obod bo‘la olmasligini yozadi. Mamlakat obod va hayot farovon bo‘lishi uchun avvalo, xalq orasida tinchlik hamda ahillik hukm surishi lozim.

“Mahbub ul –qulub” dagi har bir tanbeh, bayt yoki qit‘a hayotiy hikmat darajasiga ko‘tarilganki, bu tanbehlar zamirida xalqning ko‘p asrlik hayot tajribasi davomida to‘plagan maqol va matallarining mazmuni singdirilgan. Xalq orasida ming yillardan buyon yashab kelayotgan “Beayb parvardigor”, “AAybini bilgan avliyo”, “Xato qilmoq bordir, tuzatmaslik ordir”, “har to‘kida bir ayb”, “Adashganning aybi yo‘q, so‘rab yo‘lini topsa pchilganning aybi yo‘q bilib etagin yopsa”kabi maqolollar bilan hamohangdir. Bu hikmatlar insonga butun hayotiy jumboqlar va muammolar qarshisida o‘zini yo‘qotmaslikka o‘rgatadi. Hikmatli so‘zlar, maqollar donishmand xalqimizning inson axloqini tuzatishga qarata aytilgan mangu chaqirig‘i yanglig‘ sado beradi.

Ijtimoiy munosabatlar, inson fe‘l atvori haqidagi qarashlar barcha zamonlarda ham oqil zotlarning diqqat markazida turgan. Arastu, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalarning asarlarida ham odam bolasiga xos bo‘lgan xususiyatlar, ularning sabab va oqibatlar haqida qimmatli fikr – mulohazalar bildirilgan.

Axloqiy tafakkur taraqqiyotida munosib o‘rin tutgan Frobiy “Fozil odamlar shahri” nomli asarlarida “o‘zida o‘n ikki tug‘ma fazilatni birlashtirgan insongina axloqli bo‘ladi” –deydi va ularni bir –ma bir sanab o‘tadi. Uning fikricha, yaxshilikni qo‘lga kiritish har bir insonning donoligiga, aqllilik darajasiga bog‘liq. Forobiy imon e‘tiqodli, vijdonli, g‘ururli, olijanob, ilm –ma‘rifatga intiluvchi adolatparvar, haqiqatgo‘y, oqil, hayoli, vafoli bo‘lgan kishilarni axloqli deb tushunadi. Aslida bu tushunchalarning barchasi bir –biri bilan chambarchas bog‘iqdir.

“Mahbub ul –qulub ” hikmatlarid a ham xuddi ana shu axloq normalari haqida fikr yuritiladi. Adib butun umri davomida orttirgan hayot tajribalari asosida donishmand murabbiy sifatida insonga xos bo‘lgan xatti –harakatlarni kuzatib, unga odamiylik ilmidan saboq beradi.

Xalq og‘zaki ijodining donishmandi xalq ta‘birlari, xalq maqollaridan keng foydalanib, o‘zi ham xalq maqollari ohangida ko‘pgina hikmatli so‘zlar yaratdiki, ularning aksariyati maqolga aylanib ketgan. Inson uchun qayg‘urish, uni faqat yaxshilik sari yo‘llash “Mahbub ul –qulub” hikmatlarining asosiy mohiyatini belgilaydi. “Odamiylikning yaxshirog‘i uldirkim, porso va pok bo‘lg‘ay va haq so‘zin ayturda bevahm –u bok bo‘lg‘ay. O‘zi pok –u ko‘zi pokni inson desa bo‘lur. Tili arig‘ va ko‘ngli arig‘ni musulmon desa bo‘lur. Musulmon uldirkim, musulmonlar aning til va iligidin emin bo‘lg‘aylar va ko‘z ko‘nglidin mutma‘in”²⁷

Ezgu kalom, solih amallar haqidagi bu ibrat to‘la fikrlar xalq hayotida ming bora sinalgan, tasdiqlangan. “Boshingga qilich kelsa ham, to‘g‘ri gapir”, “Gar alifdek to‘g‘I bo‘lsang, hech balo yo‘qdur senga”, “To‘g‘ri so‘z qilichdan o‘tkir”, “Egri o‘tirsang ham, to‘g‘ti so‘zla”, “To‘g‘riga duo yog‘ilur, egriga balo yog‘ilur” kabi xalq maqollari va “Qo‘li va tili bilan birovlariga ozor bermagan kishi musulmondur” kabi hadislar mazmuni bilan muzayyan qilingan.

Alisher Navoiy insonga birinchi navbatda hayotdagi amoliga qarab baho beradi. Odamiylikning mezoni bu –porsolik (taqvodorlik), pokdomonlik va

²⁹ Хайитов Ш.Сўз гавҳарининг хазинабони.Навоийга армуғон.илмий мақолалар тўплами. –Т.: 2006.122 –б.

haqparastlikdir. Uygʻoq qalb sohibi nazdida har qanday holatda ham toʻgʻri soʻzni ayta olgan, haqiqat tarafida turib harakat qilgan kishigina inson nomiga munosib. Aksincha, sharoitga qarab oʻzgaraverish, oʻz shaxsiyatini asrab, haq gapni aytishdan qoʻrqish –bu imonsizlik belgisi. Yaxshilikka davogarlik qilgan holda yomonlar hayliga ham sherik boʻlib ketaverish –bu munofiqlik namunasidir.

“Yaxshi boʻl va yo yomon, ikkisi boʻlurman degan hamon –u yomon hamon. Yamon bila yaxshi orasida koʻp farqdur, ikki kemanding uchin tutgan gʻarqdur, har qavm oyini bila zuhur qilsang, alardinsen alar yamon boʻlsa sen yamonva alar yaxshi boʻlsa sen yaxshilardinsen. Pas, oʻzini yaxshilar orasida yashurgʻon va alar etagiga ilig urgʻon yaxshiroqdur va xavf –u biymdin qiroqdur²⁸

Aytish lozimki, Navoiy insonga tanbeh berar ekan, avvalo oʻz hayotiy kuzatishlariga asoslanadi. Pok eʼtiqodi, ijtimoiy qarashlari taqozosiga koʻra mulohaza yuritadi. Ulugʻ inson tafakkurining hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan xulosaviy fikr –mulohazalari xalqning “Yaxshiga yondosh, yomondan qoch”, “yaxshi bilan yurding yetding murotga, yomon bila yurding, -qolding uyatga”, “Yaxshi odam yoʻldoshidan bilinar”, “Doʻsting kimligini aytsang, sening kimligingni aytaman” kabi maqollar bilan butunlay mushtarakdir.

Alisher Navoiy tanbehlarining taʼsirchanligini oshirgan vositalargdan yana biri bu –ularning “Qurʻon” hikmatlaridan oziqlanganligidir. Adib insonga yaxshi – yomon aʼmollardan keladigan oqibatlar haqida oʻgit berar ekan oʻngarilmas gumrohliklari bilan olam intizomiga zarar yetkazuvchi kimsalarni shaytoni lainga qiyoslaydi. Zinhor bazinhor shaytonsifatlar hayliga yaqin boʻlmaslikni uqtiradi. Odam bilan shayton muxolafatin unutma, ota dushmaning oʻzingga doʻst tutma, otangni behishtdek mamanidin jalo qildi. Yillar haqdon gʻarobatida zalil va muftalo qildi. Odamzodning asosiy dushmani -shayton . Bu dushmanlik odamato zamonidan to hanuzgacha uning avlodlariga meros boʻlib qolgan. Adib odami safiulloh rivoyatiga diqqatni jalb qilib, odam zotidagi barcha yomon illatlar iblis

³⁰ Masharipova III. “Маҳбулбул -кулуб” ҳикматларида халқ мақоллари. Навоийга Армугон, илмий мақолалар тўплами. –Т. : 2006. 77 -79 –бетлар.

vasvasasi oqibatida sodir bo'lishini uqtiradi. Shaytonning sharri tufayli odamatoning jannat mavolaridan g'ariblik tuprog'iga muftalo qilinganini eslatadi.

Uyg'oq qalb sohibi nazdida yaxshi inson yoki yaxshilik tushunchasining ma'nosi nihoyatda keng bo'lib, unda imon va etiqod, odat va hayo kabi inson zotini bezaydigango'zal fazilatlar jamuljam bo'lgan. Odamiylikning mezoni bu faqat o'zi uchun emas, balki, o'zgalar manfaati, xalq g'am tashvishi bilan yashashdir. Binobarin, axloq targ'ibotchisining navbatdagi tanbehi ham yaxshilik xususida:

“Baxlning andoqki, butun topqoni zaxira bo'lg'ay, tong va qabri ham bu kungi maoshi uyidek tiyra bo'lg'ay. Zuhdu taqvo barcha vaqtda dilpisanddur, ulug'lar nazarida arjumandroq. Yaxshiliq va yomonliqni kim qildikim, jazo ko'rmadi. Saloh va fasod tuxmin kim ekdikim, o'rmadi”.

Shoir insonga xos qusurlar va hislatlar haqidagi fikrini quyidagi bayt bilan yanada oydinlashtiradi va qissadan hissa chiqaradi:

Yaxshiliq tuxmin sochg'ilkim budur dehqong'a so'z,
Har nekim ekding bugun borin hamon tut oning ko'z.

Alisher Navoiy deyarli barcha asarlarida xalq maqollari va hikmatlarini san'atkorlik bilan qo'llagani ma'lum. Bu usul ayniqsa, “Mahbub ul –qulub ”da nafosat darajasiga ko'tarilgan. Maqollar ba'zi o'rinlarda asl shakli saqlangan holda keltirilsa, ba'zi o'rinlarda hammaga ma'lum bo'lgan xalq hikmatining faqat mazmuni satrlar silsilasiga singdirib yuboriladi. Yuqorida keltirilgan tanbehning mazmuni ham xalq orasida keng tarqalgan. “Baxlning bog'I ko'karmas”, “Himmatli ko'kka ko'tarilar, himmatsiz yerga ko'milar”, “Hasisning yonidan moli chiqquncha, tanidan joni chiqadi”, “Har kim ekkanini o'radi” kabi o'nlab xalq maqollari hamda “al –hayou minal iymon” –“hayo iymon nishonasidir” kabi hadislar mazmuni bilan uyg'unlashib ketgan. Alisher Navoiy o'tkir haqiqat asosiga qurilgan har bir o'giti bitta hikmat. Bu hikmatlar zamirida inson axloqini tuzatishga, uni ruhan tozalashga qaratilgan ulug' muddaolar totadi. “Uning xarbul masalga aylanib ketgan baytlari, misralari inson, xalq, bashariyat haqidagi

g'amxo'rligi uning adolat, insof, to'g'rilik yo'lida olib brogan tolmas kurashi bu hassos yurakda naqadar zo'r muhabbat qaynaganiga bu yorqin manglay miyada naqadar oily fikrlar va g'oyalar javlon urganiga shohiddir”²⁹

³¹ Шайхзода М. Асарлар.6 томлик.4 –том,234 –бет.

III BOB. ALISHER NAVOIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSINI O‘RGANILISHI VA BUNDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

3.1. Navoiy ijodining darsliklarda o‘rganilishi

“...Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak”³⁰ligini har bir murabbiy chin yurakdan his qilmog‘i lozim. Buni o‘quvchi-yoshlarga tez va oson yetib borishini ta’minlashda esa, bizga adabiyot fani yordamga keladi. Chunki, adabiyotning bosh vazifasi ham tarbiyalashdir. O‘z shaxsiyati va asarlari bilan insonlarga ibrat bo‘la oladigan, ularga ma’rifat nuri ulashadigan buyuk siymolarning hayoti va faoliyatini o‘rganishimizning ham asl mohiyati shunda.

“Yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish uning dunyoqarashini aniqlashga yordam beradi. Bu esa unga to‘g‘ri baho berish uchun zamin hozirlaydi”³¹. Ba’zan yozuvchi va shoirlarning hayotini o‘rganish shart emas, degan qarashlarga ham duch kelamiz. Holbuki, adib-u shoirlar hayotiga oid faktlarni to‘plash ilmning chinakam “qora ishi” sifatida baholanishi kerak. Sababi, bu xil ishlar konkret ijodkorning shaxs va san’atkor sifatidagi tadrijini kuzatish yoki konkret asarning ijodiy tarixini to‘g‘ri talqin qilish uchungina emas, ijod psixologiyasi, ijodkor va jamiyat munosabati kabi qator umumestetik muammolarni yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Adib hayotiga oid ma’lumotlar o‘zi yozib qoldirgan tarjimayi hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holida yetib kelgan manbalardan olinishi mumkin.

Aql-zakovati va salohiyati bilan butun dunyoni lol qoldirgan Mir Alisher Navoiy aynan namuna qilib ko‘rsatishga arzigulik shaxs edi. Shuning uchun

³⁰ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси. 1999, 55-бет.

³¹ Долимов С., Убайдуллаев Х., Ахмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1967-йил, 239-бет.

umumta'lim maktablarining 5-,6-,7-,8-,9-sinf o'quvchilari va o'rta maxsus ta'limning 2-kurs talabalari uchun mo'ljallangan darsliklarda shoir Alisher Navoiyning hayot yo'li, ijodiy merosi atroflicha bayon qilingan. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari e'tiborga olingan holda, darsliklardagi ma'lumotlar izchillik bilan soddalikdan murakkablikka, mavhumlikdan aniqlikka tomon siljib boradi. Bu xususiyatni ravshanroq ko'rsatib berish uchun darsliklarga murojaat qilamiz:

5-sinf adabiyot darsligidagi ma'lumotlar

Har yili 9-fevral kuni butun O'zbekistonda buyuk bobokalonimiz, hazrat Alisher Navoiyning tug'ilgan kuni nishonlanadi. Barcha maktab va oliy o'quv yurtlarda, kollej hamda litseylarda va boshqa muassasalarda bu sana bayram qilinadi. Bu shariyat bayrami adabiyot bayramidir.

Xo'sh, nima uchun shoir bobomizga bunday ehtirom va e'zoz bildiramiz ? Buning asosiy sababi shundaki, Alisher Navoiy bizning Vatanimiz tarixidagi eng ulug' siymolardan biridir. Bu zot millatimizni dunyodagi eng madaniyatli va ma'rifatli xalqlar qatoriga olib chiqqan, jahon adabiyotining ulkan namoyondalari qatorida turadigan zotdir.

Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirot shahrida tug'ildi. Bu shahar hozirda Afg'onistonning markaziy shaharlaridan. Alisherning otasining oti G'iyosiddin Muhammad edi. Uni "Kichkina bahodir" ham der ekanlar. Onasining ismi ma'lum emas.

Alisher juda kichik yoshlaridan she'r va musiqaga havas qo'yadi, olim-u shoirlar davrasida ulg'ayadi. Uning otasi temuriylar xonadoniga yaqin odamlardan edi. Ularnikiga zamonasining mashhur kishilari tez-tez kelib turar edilar.

Yosh Alisher uch-to'rt yoshlarida she'r yod olib, ko'plarni hayratga soldi. Besh yoshida maktabga bordi. Bo'lajak sulton Husayn Boyqoro bilan birga o'qidi.

1447-yilda mamlakat podshohi Shohruhmirzo vafot etib yurtida notinchlik boshlandi. Alisher oilasi Iroqqa ko'chadi. Olti yoshlik Alisher yo'lda bir tasodif

bilan zamonasining mashhur tarixchisi Sharafiddin Ali Yazdiyga duch keladi. Odob va muomala bilan buyuk tarixchi mehrini qozonib, duosini oladi.

Alisherlar xonadoni Hirotga 141-yilda qaytadi. Yo'lda yana qiziq voqea yuz beradi. Ilgari shahardan shaharga karvonlar qatnar, bordi-keldilar shular yordamida bo'lar va ular ko'pincha tunda yurib, kunduzlari dam olar edilar. Xullas, tunda ot ustida mudrab borayotgan o'n yoshdagi Alisher egardan yiqilib tushadi, uyqu zo'ridan uyg'onmay, karvondan ajralib qoladi.

Ertalab uyg'onsa, cho'li biyobon. Narroqda oti o'tlab turibdi. Odam zoti yo'q. Quyosh ko'tarilib kelmoqda. Bir lahza uni qo'rquv va vahima bosadi, biroq o'zini tezda qo'lga olib, yolga tushadi. Ko'p o'tmay, uni izlab kelayotgan o'z kishilariga duch keladi va eson – omon ota-onasi bag'riga boradi.

1452-yil taxtga Abulqosim Boburmirzo chiqadi va Alisherning otasi Sabzavorga hokim qilib tayinlanadi. Alisher Sabzavorda o'qishni davom ettiradi.

1452-57- yillarda u dastlab Sabzavorda, so'ng Mashhadda yashadi. She'rga musiqaga mehri oshib bordi. Fariddin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Shayx Sa'diy, Xusrav Dehlaviy asarlarini sevib o'qidi. Ayniqsa, Attorning “ Mantiq ut-tayir”(“Qush tili”) kitobi yosh Alisherning xayolini tamom egallab oldi. Ota-onasi tashvishga tushib, bu kitobni bekitdilar. Lekin Alisher kitobni butunlay yod olgan edi.

Bular bejiz ketmadi. Bo'lajak shoir yeti-sakkiz yoshlaridan she'r mashq qila boshladi. Ikki tilda she'r yozdi, o'zbekchalariga “Navoiy”, forschalariga “Foniy” taxallusini qo'ydi. “Navoiy” “navo”-“kuy”so'zidan olingan, “Foniy” esa forscha “vaqtincha” ma'nolarini berar edi.

Shunday qilib, Navoiy 12 yoshlarida o'z she'rlaribilan zamonasining eng mashhur shoirlarini hayratga soldi. Masalan, to'qson yoshlik Mavlono Lutfiy uning:

Orazin yopg'och, ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh,-
satrlari bilan boshlanadigan bir she'rini tinglab, qoyil qolgandi.

She'r chindan ham go'zal edi. Undagi xayol mislsiz edi."Yor yuzini yopgach, ko'zimdan har lahza yosh sochiladi. Bu go'yo quyosh botganida yulduzlar paydo bolgani kabidir",- deb yozgan edi yoshgina shoir.

1457-yilda Abusaidmirzo taxtga chiqdi. Alisherning maktabdosh do'sti Husayn Bayqaro taxt uchun kurashga tushib ketdi. Alisher Mashhad madrasalarida o'qishni davom ettiradi.

U Hirotga 1464-yilda keladi, ko'p o'tmay, Samarqandga ketishga majbur bo'ladi. Samarqandda u 1469 yilga qadar yashadi. Temuriylarning bosh shahri buyuk shoir hayotida o'chmas iz qoldiradi. Bu haqda u ko'p yozgan.

Nihoyat Alisherning maktabdosh do'sti Husayn Bayqaro taxtga chiqishi bilan Hirotga chaqirib oladi va muhrdor qilib tayinlaydi. 1472-yildan vazirlik martabasiga ko'tariladi, 1487-88-yillarda Astrabodda hokim bo'ladi. Umrining oxiriga qadar shohning eng yaqin kishisi bo'lib qoladi. Shu yillari mamlakat osoyishtaligi, yurt obodligi yo'lida ulkan ishlar qiladi.

Alisher Navoiy umr bo'yi badiiy ijod bilan ham shug'ullandi. Yettita sheriyy devon tuzdi. Nizomiy Ganjaviyning besh dostonidan tarkib topgan "Panj ganj" (Besh hazina)igaga javob sifatida o'zining mashhur "Xamsa"sini yozdi. O'ndan ortiq nasriy asar yaratdi. Bu asarlar, mana besh asrdan oshibdiki mumtoz adabiyotimizning cho'qqisi bo'lib turibdi.

Buyuk shoir 1501-yilning 3-yanvarida Hirotida vafot etdi³².

6-sinf adabiyot darsligidagi ma'lumotlar

Siz buyuk bobokalonimiz hazrati Alisher Navoiy haqida ko'p eshitgansiz, kitoblar o'qigansiz va balki atoqli yozuvchi Oybekning "Navoiy" romani asosida su'ratga olingan ko'p qismli videofilmni ham tomosha qilgansiz . Qolaversa, o'tgan yilgi adabiyot darslarida hazratning hayoti va ijodiy faoliyotiga oid ma'lumotlarni qunt bilan o'rgangansiz. Har yili 9-fevralda shoirning tavallud

³² Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). II qism. – T.: Sharq, 2011.

ayyomi Toshkent shahridagi Milliy bog' hamda yurtimizning turli g'shalarida o'rnatilgan haykallari poyiga gullar qo'yib, ul zot xotirasini yod an'anaga aylanganini ham bilasiz. Nima uchun shoir bobomizga shunday ehtirom e'zoz boldiramiz? Asarlarni qayta-qayta nashr etib, keng targ'ib qilamiz? Chunki "Alisher Navoiyxalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkey va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa."

Darhaqiqat, bobomizning mustaqillik nashr etilgan yigirma jildlik mukammal asarlari to'plamiga kirgan sher-u dostonlari ilmiy va tarixiy asarlari, xotira va yozishmalari ruxiy dunyomizni nihoyatda boyitadigan, aql – tafakkurimizni charxlaydigan, yurtimiz tarixi va uning buyuk siymolari haqida juda qimmatli ma'lumotlar beradigan asarlardir. Mazkur asarlarning orasida besh ulug'vor dostonni o'z ichiga olgan "Xamsa" ayniqsa, e'tiborga sazovor. Siz avvalgi sinflarda bobomizning ijodiy faopliyatlarini bilan tanishganingizda "Xamsa" yaratish juda mushkul, ammo sharafli hadisa hisoblanganini, jahon adabiyotida hamsanavislar ko'p bo'lagan-u, ammo mukammal "Xamsa" yaratish faqat ozorboyjon shoiri Nizomiy Ganjaviy, Hind adibi Hisrav Dehlaviy va fors – tojik adabiyoti namoyandasi Abduraxmon Jomiyga, o'zbek hamda boshqa turkey adabiyot vakillari orasida esa faqat Alisher Navoiyga nasib etganini bilib olgansiz³³

7-sinf adabiyot darsligidagi ma'lumotlar

Butun umrini turkiy til mavqeini ko'tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish asoslarini mustahkamlash, jamiyatda haqiqat va adolat

³³ Ahmedov S, Qo'chqorov R, Rizayev Sh. Adabiyot: umum ta'lim maktablarining 6 –sinfi uchun darslik –majmua. (II qism) – T.: Gho'lpon nomidagi NMIU, 2013. –160 b.

me'zonlarini toptirishga bag'ishlagan bobokalonimiz haqidagi biografik ma'lumotlar, yozmishlarning deyarli barchasi to'liq saqlanib qolgan. Xalq ichida bu zotning hayoti va faoliyati bilan bog'liq rivoyat va afsonalar ham talaygina. Chunki odamlar o'zlariga va kelgusi avlodga yozish tarsi, qilmishlari ibrat, aytmish va yozmish so'zlari haqiqat bo'lgan zotlar to'g'risida ham hurmat, ham hikmat ma'nosida mana shunday og'zaki ijod namunalari to'qib oldilar.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralida xuroson o'lkasining poytaxti Hirot shahrida tug'ildi. Zamondoshlari uni "Nizomiddin Mir Alisher" leb ulug'laganlar.

"Nizomiddin"-din nizomiy degandir. Ko'pincha mansab egalariga nisbatan aytilgan "mir"-amir demakdir. Chunki u Husayin Bayqaro saroydagi eng nufuzli amir bo'lgan. Alisher bolalikdan ma'rifatli oila muhitida tarbiya topdi. Navoiyning otasi G'iyosiddin Muhammad (uni "G'iyosiddin kichkina" ham der edilar) temuriylarga yaqin amaldorlardan bo'lib, o'z davrining obro'li va ma'rifatli kishilardan sanalgan. Adabiyotshunos Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha u o'g'li Alisherning tarbiyasiga, kelajakda fozil odam bo'lib yetishmog' uchun astoyidil harakat qilgan. Onasi Kobul amirzotlaridan Shayx Abusayid Changning qizi bo'lgan. Bo'lajak shoirning tog'alari Mir Said (Mirsaid) Kobuliy yaxshi shoir, Muhammad Ali G'aribiy shoir, sozanda va xattot edilar. Alisher oilada uchunchi yoki to'rtinchi farzand bo'lib, maktabda bo'lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o'qidi. U erta savod chiqardi, she'r o'qish va yod olish, she'r bitishga bolalikdan havas uyg'ondi. Kichik maktab yoshida fors shoiri Fariddin Attirning kattalar ham tishunishi qiyin bo'lgan "Mantiq ut-tayir" dostonni fors tilida o'qib ham uqib yod olganiuning yoshlik istedodining muqim qirralaridan edi.

1447-yilda podshoh Shohruh Mirzo vafot etib, poytaxt Hirot notinch bo'lib qoldi. Alisherlar oilasi Iroqqa ko'chib ketdi. Yo'lda Taft shahrida Alisher mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashdi, tiyrakaqilli bolakayning zukkoligidan mamnun bo'lgan keksa olim uning haqqiga duolar qildi. Xalq orasidagi "Ulug'lar duosi qabul bo'ladi" degan naql bejiz emas.

Alisherlar xonadoni 1451-yilda Hirotga qaytdi. Ko'p o'tmay, taxtga Abulqosim Bobur Mirzo o'tiradi. Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad Sabzavotga hokim bolib tayinlandi. Alisher esa, o'qishni davom ettirdi.

1453-yilda Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad vafot etdi. Alisher Abulqosim Bobur xizmatiga kirdi. Avval Sabzavotda, so'ng Mashhadga yashadi. Ikki maktabdosh dost: Husayin va Alisher yana birga bo'ldilar. Bu yillar ham yosh Alisher uchun o'qish va bilim egallash davri bo'ldi.

She'rga mehr Alisherni ijodga undadi. U 7-8 yoshlaridan she'r yoza boshladi. O'zbekcha she'rlariga "Navoiy," forsha she'rlariga "Foniy" taxallusini qo'ydi. Deyarli Siz tengi paytlarida she'rlari bilan mamlakatga tanilib qolgan edi.

O'smirlik davrlarida Alisher o'qishda va yozishda tinim bilmas, she'r mutolaasidan charchamas edi. "Muhokamat ul-lag'atayin" asarida o'zining yoshlik chog'ida mashhur o'zbek va fors shoirlari nazmidan 50 ming bayt (100 ming misra) sherni yod bilganini yozadi. Bolalik vaqtlaridayoq o'z davrining Amir Shohiy, Lutfiy, Komil, Turbatiy kabi shoirlari bilan yaqindan aloqada boldi. Otasi vafotidan so'ng taniqli ilm va adabiyot, san'at arbobidan Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Mahmud kabilar otalik qildilar. Sabzavotlik olim va shoir Darvesh Mansurdan aruz bo'yicha ta'lim oldi.

1457-yilda Abulqosim Bobur Mirzo vafot etdi. Uning o'rnini Abusaid Mirzo egalladi. Husayin Bayqaro taxt uchun kurashga sho'ng'ib ketdi. Navoiy esa Mashhad madrasalarida o'qishni davom ettirdi. 1464-yilda Hirotga qaytib kelgan shoir hayotida nohushliklar boshlandi. Abusaid Mirzo taxtga da'vogar Husayn Boyqaroning yaqin kishilarini ta'qib ostiga oladi. Alisherning ota mulkini musodara qiladi, tog'alari Kobuliy va G'aribiylarni qatl ettiradi.

Navoiy 1460-yillarning ikkinchi yarmida Samarqandda yashadi. Temurbek poytaxt qilgan bu ko'hna shahar uning hayotida o'chmas iz qoldirdi. Bu yerda o'z davrining yetuk olimlaridan, xususan, shu kungacha asarlari Islom olamida mo'tabar sanalib kelayotgan Fazlulloh Abulayz Samarqandiydek allomadan saboq oldi. Keyinchalik bu shaharni o'z asarlarida "firdavsmonand" (jannatmisol) deb ta'rif

etdi. Bu yerda shoir sifatida juda katta shuhrat topa bordi. Bir devonga yetib ortadigan asarlari bo'lishiga qaramay, kamtarlik tufayli bo'lsa kerak, o'zi tartib bermaganligi uchun 1465-1466-yillarda uning muxlislari she'rlarini to'plab, "Devon" tuzdilar. Bu kitob bugungi kunda shartli ravishda "Ilk devon" deb nomlanadi.

1469-yilda Hirot taxtiga Husayn Boyqaro chiqadi va Samarqandga xat yollab, Alisher Navoiyni o'z yoniga chaqirib oladi. Davlat ishlariga jalb etadi, avval muhrdor, so'ng vazir qilib tayinlaydi. 1487-1488-yillarda Astrobodga hokimlik qildi. Husayn Boyqaro hokimiyat ishlarida Navoiyning aql va sadoqatiga tayanib ish ko'rdi. Uning qarshiligiga qaramasdan, shoirni yuqori martabalarga tayinladi. Buyuk shoir "amiri-kabir" (ulug' amir), "amir ul-muqarrab" (podshohga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo'ldi. Uning vazirlik yillari Hirotga obodonlik ishlari avj olgan, madaniyat gullab yashnagan, adolat va haqiqat tug'I baland ko'tarilgan davr bo'ldi. "Ilgimdan kelganicha, -deb yozadi "Vaqfiya" asarida Navoiy, -zulum tigin ushotib (sindirib), mazlum jarohatiga intiqom marhamini" (qasos malhamini) qo'dim. Va iqlimdin kelmaganni ul Hazrat (Husayn Boyqaro) arzig'a yetkurdim".

Davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining sevimli mashg'uloti-badiiy ijodni ham to'xtatmadi. 1472-1476-yillarda "Badoe ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi"), 1476-1483-yillarda "Navodir un-nihoya" ("Tuganmas nodirliklar") nomlari bilan ikki devon tuzdi.

1483-yilda turkiy tilda birinchi bo'lib "Xamsa" yozishga kirishdi va misli ko'rilmagan qisqa muddat-ikki yilda besh yirik dostonidan iborat asarni yozib tugatdi. Ilm va ijod ahli bu voqeani zo'r shodliklar bilan qarshi oldi. Abdurahmon Jomiy Navoiy "Xamsa" sig'a yuksak baho berdi. Husayn Boyqaro buyuk shoirni oq otiga mindirib, unga jilovdorlik qilib, Hirot ko'chalarini aylantirdi. Bu insoniyat tarixida kamdan kam uchraydigan hodisa edi: qudratli davlatning shavkatli podshohi jilovdorlik qilsa! Mazkur hodisa ayni paytda Husayn Boyqaroning

ma'nan uyksak, ma'rifatli va haqiqatpesha hukmdor bo'lganligining dalilidir. Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida bejiz uni shoh G'oziy deya ulug'lamagan edi.

1489-1493-yillar shoir uchun ayriliq, og'ir judolik yillari bo'ldi. Do'stlari, ustozlaridan Sayyid Hasan Ardasher, Abdurahman Jomiy, Pahlavon Muhammad ketma-ket vafot etdilar. Navoiy ularning xotirasiga bag'ishlab uchta memuar-esdaliklardan iborat nasriy asarlar yaratdi.

Navoiy fanning bir necha sohalarida qalam tebratib, zabardast olim ekanligini ham isbot etdi. O'tmish mavzusida "Tarixi mulki Ajam" ("Ajam ya'ni arab bo'lmagan mamlakatkar tarixi"), "Tarixi anbiyo va hukamo" (Payg'ambarlar va donishmandlar tarixi) asarlarini yozgan. Turkiy adabiyotshunoslikda ham uning alohida o'rni bor. Aruzga doir "Mezon ul-avzon" ("Vaznlar o'lchovi"), tazkirachilikka oid "Majolis un-nofois" ("Nafis majlislar") kabi asarlar yaratdi. Bular o'zbek (turk) tilida shu sohalaridagi birinchi asarlar edi. Buyuk shoir tilshunoslik bilan ham qiziqdi. Lug'atshunoslikka oid "Sab'at-u abhur" ("Yetti dengiz") nomli kitob yozdi. Ayniqsa, "Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") asarida turk (o'zbek) va sort (fors) tillarini solishtirib, o'z ona tilining tuganmas imkoniyatlarini ilmiy asoslab berdi.

Navoiy 1490-yillarda adabiyotimiz tarixidagi yana bir katta hodisa-"Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") majmuasini tuzdi. To'rt devondan iborat bo'lgan bu ulkan she'riy to'plam shoirning turkey tilda yozgan deyarli barcha lirik she'rlarini qamrab olgan edi. Shuningdek, fors tilini mukammal bilgan va unga ham barakali ijod qilgan shoir bu tilda yozgan she'rlarini to'plab "Devoni Foniyy"ni tuzdi.

Buyuk adib umrining oxiriga qadar ilm-u ijod bilan qizg'in va samarali shug'ullandi. Sharqda o'tgan mashhur shayxlar, so'fiylar hayoti haqida ma'lumot beruvchi "Nasoyim ul-muhabbat" ("Muhabbat shabadalari") asarini yozib tugatdi. So'ng umr bo'yi xayolini band etgan "Lison ut-tayr"ni qog'ozga tushirdi. Boshqalar bilan olib borgan yozishmalari-xatlarni to'plab "Munshaot" ("Xatlar") tuzdi. 1500-yilda buyuk mutafakkirning yaxshilik va yomonlik haqidagi o'zida

ifodalagan “Mahbub ul-qulub” (“Ko’ngillarning sevgani”) asari maydonga keldi. Bu buyuk adibning so’nggi asari edi.

Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida vafot etdi³⁴.

8-sinf adabiyot darsligidagi ma’lumot

Muhtaram o’quvchi! Oldingi sinflarda siz buyuk o’zbek shoiri va mutafakkiri, o’zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy tarjimayi holi, u yozgan o’lmas asarlar, ulrdan ba’zilarining mazmun-mohiyati, badiiy jozibasi bilan atroflicha tanishgan edingiz.

Yaxshi bilasizki, Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda temuriylar hukmronligida bo’lgan Xuroson davlatining poytaxti Hirot shahrida saroy amirlaridan bo’lmish G’iyosiddin Kichkina xonadonida tavallud topdi. Kichik yoshidan ta’lim olib, maktabda o’qib yurgan kezlari forsiy tildagi tasavvufiy adabiyotning asoschilaridan biri hisoblanmish Fariddin Attorning mashhur “Mantiq ut-tayr” (“Qush nutqi”) dostonini sevib, berilib o’qidi. Ota-onasi mazkur asarga yoshlayin bu qadar mashg’ul bo’lib ketganidan qo’rqib, kitobni undan olib, yashirishdi. “Biroq,-deydi oltmish yoshlarida shu dostonga javob tariqasida yozgan “Lison ut-tayr” (“Qush tili”) asarida shoir, - *men “Mantiq ut-tayr” matnini to’liq yodlab olgan edim...*”

Siyosiy vaziyatlar taqozosi bilan Navoiylar oilasi Mashhad shahriga ko’chib, bir necha yil o’sha yerda yashaganidan ham xabardorsiz.

1466-1469-yillari yosh shoir Samarqand shahridagi madrasalarda ta’lim oldi. Davlat ishlarida xizmatda ham bo’ldi, faol ijod ham qildi. 1469-yilning bahorida do’sti temuriyzoda Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallaganidan so’ng shoirni yoniga chaqirdi.

Ulug’ qalam sohibi bir necha yil Husayn Boyqaro saroyida oily martabali lavozimlarda xizmatda bo’ldi. U buyuk amallardan istifoga chiqib, erkin ijodiy ishlar bilan mashg’ul bo’lgan kezlarda ham ijtimoiy-siyosiy faoliyatdan

³⁴ Yo’ldoshev Q, Qosimov B, Qodirov V, Yo’ldoshbko J. Adabiyot :Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 7 –sinfi uchun darslik – majmua . –T.: “Sharq”, 2013. –368 b.

chetlashgan emas. Unga Husayn Boyqaro “Muqarrabi shohiy”, ya’ni shohning eng yaqin kishisi martabasini bergan edi. Bu sharaflı martabaning hukmdor oldidagi imtiyozi shu ediki, u podshohga bir masala yuzasidan ketma-ket yeti martagacha murojaat qilish huquqiga ega edi.

1483-1485-yillari shoirning eng buyuk asari-besh dostonidan iborat “Xamsa” yaratildi.

Umrinıg so’nggi o’n yili mobaynida ham Navoiy juda ko’p badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar bunyod etdi.

Bu ulug’ zot 1501- yilning 3-yanvari kuni Hirotda vafot etdi. O’sha kuni butun mamlakat motam tutdi. Qabri-Hirotda. O’zbekiston hukumati bobokalon shoirimiz qabrini obod qilish rejasini tuzayapti. 1991-yilning 26-sentyabr kuni mamlakatimiz poytaxtidagi O’zbekiston milliy bog’ida Alisher Navoiyning ulug’vor haykali qad rosladi. Xalqimiz vakillari, dunyoning turli mamlakatlardan kelgan mehmonlar shoir haykali poyiga guldasta-yu gulchambarlar qo’yadi. Haykal ustida bino qilingan baland toq girdiga uning bir g’azalidan olingan:

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig’,

Yor o’lung bir- biringizgak, erur yorlig’ ish,-

degan misralari yozib qo’yilgan. U butun bashariyatga qarata aytilgan shior yanglig’ jaranglaydi. Zahridin Muhammad Bobur to’g’ri takidlaganidek, tarixda hech kim turkiy tilda Navoiychalik “*ko’p va xo’b (yaxshi)*” asarlar yozgan emas. Shoir butun turkey adabiyotda eng katta lirik merosga ega qalamkash hisoblanadi. Keyingi yillarda Tokio, Moskva va Boku shaharlarida ulug’ o’zbek shoiri hahkali qad rosladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak m’anaviyat-yengilmas kuch” asarida Alisher Navoiy haqida shunday deyilgan: “*Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir*”³⁵.

³⁵ Olimov S. Adabiyot 8: Darslik –majmua (I qism) /S.Olimov, S. Ahmedov, R. Qo’chqorov. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2014. –192 b.

9-sinf adabiyot darsligidagi ma'lumot

Siz quyi sinflardan benazir inson, buyuk alloma, daho ijodkor Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan tanishib kelmoqdasiz. Millatimiz faxri bo'lmish bu zotning asarlari, ularning mazmun-mohiyati to'g'risida tasavvurga egasiz. Ushbu sinfda Siz uning "Xamsa" asari bilan batafsilroq tanishasiz.

Sharqda hamsachilikning o'ziga xos tarixi va an'anasi mavjud. "Xamsa" yozishni ozarboyjonlik ulug' shoir Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. Lekin u bu asari avvaldan niyat qilib, ma'lum bir reja asosida yaratmagan. Nizomiy 1173-1179- yillarda Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag'ishlab "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasini") nomli hamdnoma yozadi. 1180-1181-yillarda Iroq hukmdori To'rg'ul II ning iltimosiga ko'ra "Xursav va Shirin" dostonini yaratadi. 1188- yilda Shirvonshohlardan Axsatan I Nizomiyga "layli va Majnun" dostonini yozishni buyuradi 1196- yilda hukmdor Aloviddin Ko'rpa Arslonning topshirig'i bilan Bahrom haqida "Haft paykar" ("Yetti go'zal") maydonga keldi. 1196-1201- yillarda "Iskandar noma" yartildi. Shu tariqa 1173-1201-yillar oralig'ida – 28 yil davomida muallifning besh dostoni dunyo yuzini ko'rdi. Shundan so'ng adibda turli yillarda bitilgan bu dostonlarni jamlab, yagona bir nom bilan atash fikri tug'ilgan va "Panj ganj" ("Besh xazina") nomi bilan mashhur bo'lgan birinchi "Xamsa"vujudga kelgan.

Nizomiydan yuz yildan so'ng asli shahribabzlik turkey qabilalar avlodidan bo'lgan Xusrav Dehlaviy (1253-1325) o'zining "Xamsa"sini 1299-1301-yillarda yozib tugalladi. U "Matla' ul-anvor" ("Nurlarning boshlanmasi"), "Shirin Xusrav", "Majnun va Layli", "Hasht Behisht", ("Sakkiz jannat"), "Oyinaviy Iskandariy" ("Iskandar oynasi") dostonlarini yaratib, Nizomiy ishini davom ettirdi va natijada adabiyotda xamsachilik an'anasi paydo bo'ldi.

Shunga ko'ra asar "Xamsa" deb atalishi uchun: a) besh dostonidan tashkil topmog'i; b) birinchi doston, albatta pand-nasihatchilik ruhidagi ta'limiy-axloqiy, falsafiy bo'lmog'i; d) ikkinchi doston Xusrav va Shirin mojarolariga

bag'ishlanmog'i; e)uchinchi doston Layli va Msjnun muhabbatini mavzu qilib omog'i; f)to'rtinchi doston shoh Bahrom va beshinchi doston Isksndar haqida yozilmog'i shart edi.

Dehlaviydan qariyib 200 yildan keyin ikki buyuk xamsanavis maydonga chiqdi. Bular Jomiy va Navoiy edilar. Jomiy avval quyidagi besh asarni yozdi;"Tuhvatul -ahror" ("Erkinlar tuhfası"), "Sabhatul - abror" ("Yaxshilar tasbihi"), "Yusuf va Zulayxo", "Layli va Majnun", "Xirodnomayi Iskandariy". Bu besh asarni 1485-yili yozib tugalladi. Keyin "Silsilat uzzahab", "Salomon va Absol" asarlarini qo'shib, "Xamsa" sini yeti dostonga yetkazdi va "Haft avrang" ("Yetti taxt") deb atadi. Alisher Navoiyning "Xamsa" si boshqalardan xavfli ravishda muallifning onatilisida – turkey tilda yozildi. Buni o'zbek kitobxonlarning ortib borayotgan ehtiyoji, o'zbek adabiy tili va adabiyotning taraqqiysi hamda isteiqboli talab qilar edi. Bunday ulkan katta jasorat talab qiladigan mas'uliyatli ishga daho ijodkor Navoiygina jur'at qila olardi. Shuning uchun " Layli va Majnun" dostoni xotimasida Nizomiy va Dehlaviyni ta'riflar ekan, turkey(o'zbek) tilida "Xamsa" yozishning sababini shunday izohlaydi:

...Gar nuktalari olamni tutdi,
G'avg'olari ins-u jonni tutti.
Cun forsiy erdi nukta shavqi,
Ozroq edi andi turk zavqi.
Ul til bilan nazm bo'ldi malfuz,
Kim forsiy anglar o'ldi mahfuz.
Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.
Kim shuhrati jahonga to'lg'ay,
Turk eliga dog'i bahra bo'lg'ay

Navoiy o'z salaflarining yuksak san'atkorligini sharaflaydi, ularning adabiy tajribalaridan ta'lim olganligini e'tirof qiladi. Dostonlarining muqaddima qismida

ustozlariga bag'ishlab maxsus bobolar yozib ularni ulug'laydi. Mas'uliyatli bu ishda ularga ruhan suyanadi va :

Yo'ldasa bu yo'lda Nizomiy yo'lim,

Qo'ldasa Xisrav bila Jomiy qo'lim,-

deb madad tilaydi. Biroq Navoiy oldingi xamsanavislarni takrorlamaydi yoki ularga ko'r-ko'rona taqlid qilmaydi. O'z oldiga yangi, o'ziga xos "Xamsa" yaratish vazifasini qo'yadi. Buni muallif "Xamsa"ning bir necha o'rnida ochiq-oydin ta'kidlaydi, jumladan u "Farhod va Shirin" dostoni muqaddimasida shunday yozadi:

Ani nazmetki, tarhi toza bo'lg'ay,

Ulusga mayli beandoza bo'lg'ay.

Yoq ersa nazm qilg'onni xaloyiq

Mukarrar aylamak sendin neloyiq?

Bu misralari orqali Navoiy "Xamsa" yozishdagi belgilab olgan o'z yoriqlarini bayon etadi: Shunday asar (nazm) – doston yozginki, o'ziga xos (tarhi toza) bo'lsin, o'qigan odamlarga (ulusqa) yangi, boshqa asarlarga o'xshamas (beandoza) ligi sezilib tursin. Aks holda (yo'q ersa) asari o'zgalari (haloyiq) yozgandek bo'lsa, bunday takrorlash (mukarrar) senga loyiq emas. Yaxshisi, bunday asar yozmagan ma'qul. Lekin bu oson ish emas. Buning uchun Yaqin va o'rta Sharq o'kalarida qalami mislsizligi e'tirof etilgan Nizomiy va Dehlaviy bilan ijodiy bahsga kirishishi lozim bo'ladi. Bu juda katta bilim va yuksak adabiy didni, iste'dod hamda mashaqqatli mehnatni talab etar edi. Bu haqida "Farhod va Shirin" da yozadi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasig'a panja urmoq.

Kerak sher ollida ham sheri jangi,

Agar sher o'lmasa, bore palangi.

Haqiqatdan ham Nizomiydek nazm she'ri bo'lgan maydonda turmoq oson emas. U bilan bahslashish (panjasiga panja urmoq) uchun sher yoki hech bo'lmasa

yo'lbars (palang) bo'mog'I darkor. Navoiy she'r bilan tenglashadigan sher bo'ldi. Uog'ir va ma'suliyatli vazifani muvoffaqiyat bilan ado etdi. Nihoyat qisqa bir muddat-ikki yil (1483-1485) davomida 51 ming misradan ortiq besh dostonni yozib tugalladi. U 1483-yilda "Hayrat ul-abror" falsafiy-ta'limiy dostonini, 1484-yilda uch asarni "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" ishq qissalarini, "Sab'ayi sayyor" ishqiy sarguzasht dostonini, 1485-yili esa "Saddi Iskandariy" qahramonlik dostonini yaratdi. Dostonlar, butun Sharq mumtoz adabiyotida bo'lganidek, an'anaviy muqaddima-hamd va na't qismlari bilan boshlanadi. Hamd – Yaratuvchimiz Allohni ulu'lash, unga shukronalik na't esa payg'ambarimiz Muhammad (a.s) alqovidir.

Navoiy "Xamsa"si yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi. Besh doston bir-biri bilan ich-ichidan mustahkam bog'langandir. Masalan, "Hayrat ul-abror" da shoir umr, uning mazmuni tabiat, jamiyat va inson munosabatlariga doir savollarni qo'yadi, keyingi dostonlarda muayyan taqdir, voqealar misolida ularga javob berishda harakat qiladi. Shu nazar bilan "Hayrat ul-abror" tuzilishi va mavzulariga diqqat qilaylik.

Doston o'ziga xos qurilishga ega. U falsafiy-ta'limiy doston bo'lganligi uchun mavzu biror voqeani hikoya qilish asosida emas, balki muallif fikr mulohazalarining bayoni tarzida yoritiladi. Shuningdek, maqolatlar shu dostoningagina xos bo'lib, adibning boshqa asarlarida uchramaydi. Har bir maqolatda insonning kundalik hayoti bilan bog'liq diniy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy biron mavzu bayon etiladi, uning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Maqolat so'ngida mavzuni dalillash, uni hayotiy asoslash maqsadida hikoya yoki masal keltiriladi. Mazkur hikoya va masallarning bosh qahramoni asosan tarixiy shaxslar, mashhur din va davlat arboblardir. Ularda shoir islomiy mezonlar, umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqib Olam va Odam to'g'risidagi o'z mulohazalarni yuksak badiiy shaklda ifoda etadi.

Kimki jahon ahlida inson erur,

Balki nishoni anga iymon erur.

Ya'ni, kim bu dunyoda inson deb atalibdi, insonligining belgisi iymondir. Iymonsizni odam deb atab bo'lmaydi. Inson bilan hayvon orasidagi farqni nutqda – odamning so'zlay bilish qobiliyatidagina deb bilish hatidir. Chunki odamda nutq ham, boshqa mahluq- hayvonlarda bo'lgan bir qator jihatlar ham bor. Shuning uchun asosiy mezon iymondir, deydi Navoiy.

Hukmdorlarga bag'ishlangan “Salotin bobida” nomli uchinchi maqolat adibning adolat haqidagi qarashlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Maqolatda shoirning tenglik, ozodalik adolatli jamiyat borasidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Uning fikricha, mamlakatda juda ko'p narsa davlat boshlig'iga bog'liq. Shoh odil, oqil, orif va el-yurtga g'amxo'r bo'lishi kerak. Shuning uchun shoir shohga qarata: raiyat (xalq) pada bo'lsa, sen cho'ponsan u mevali daraxt bo'lsa, sen-bog'bon, agar chopon qo'ylarini asramasa, ular och bo'rilarga yem bo'ladi. Podani bo'rilardan asra bog'ni suv berib yashnatgin, deydi. Humdor kim bo'masin, mamlakat va xalqning taqdiri uning faoliyati, xatti – harakatiga bog'liq:

Shohki ish adl ila bunyod etar,

Adl buzuq mulkni obod etar.

Kofiri odil ani obod etib,

Mo'mini zolim ani barbod etib.

Keyingi maqolatda odob masalalari yoritilgan. Adib unda kishilar bilan munosabat va muomala madaniyati, o'zini tuta bilish, bola tarbiyasi va boshqalar to'g'risida o'z mulohazalarini bildiradi. Odob, tavozeni alqaydi, o'zini tuta bilmaslik o'rinsiz kulgi kabi salbiy hislatlarni qattiq qoralaydi. Inson munosabatlarda har bir kishining ahvoliga yarasha muomala qilishi, kattalarga xizmat, kichkinalarga shavqat etishi lozim deb uqtirgan shoir:

“Har kishining tavrig'a loyiq kerak, Surati holig'a muvofiq kerak. Kimki ulug'roq anga xizmat kerak, Ulki kichikroq, anga shavqat kerak”, deb ta'lim beradi. Tanosub san'ati asosiga qurilgan quyidagi satrlarni esa har bir farzand o'ziga dasturi amal deb bilishi kerak:

Boshni fido ayla ato boshig'a,
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.
Tunni kunninga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Maqolatlardan birini Navoiy elga manfaat yetkazish masalalariga bag'ishlaydi. Insonning hayoti jamiyatda, odamlar orasida kechadi. Shuning uchun haqiqiy inson yurt tashvishi bilan, el g'ami bilan yashaydi:

Odami ersang, demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

Navoiy har bir tushunchaga mukammal ta'rif va tafsif berar ekan, fikrni go'zal va nafis badiiyat libosida o'rab, o'quvchiga taqdim qiladi. Uni o'qir ekansiz, ifoda go'zalligi sizni maftun qiladi, so'zlar jilosidan adibga tahsinlar o'qiysiz. Birinchi dostonda tilga olingan mazkur mavzular, masalalar keyingi qissalarda (dostonlard)

O'ziga xos tarzda talqinlarda bir-biridan go'zal teran qissalar orqali kitobxon ongi va shuurga yetkaziladi.

“Xamsa” –Navoiy dahosining mahsuli, ayni paytda millatimiz tafakkur ko'lami hamda ma'naviy qudratining timsoli.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shahs, milliy fadabiyotimizning tengsiz namayondasi, millatimiz g'ururi, shan'u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkordir. Ta'bir joiz bolsa, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiygs sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa”. Chunki Navoiyni bilish o'zlikni bilish, Navoiyni sevish millatni sevish, Navoiyga sadoqat ezgu insoniy qadriyatlarga sadoqat demakdir³⁶.

³⁶ Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangi yo'l poligraf service, 2010.

Akademik litsey (ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun darslik)dagi ma’lumot.

Alisher Navoiy o‘zbek adabiyotidagina emas, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti, hatto jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng noyob hodisalar silsilasiga mansub bo‘lgan buyuk shaxsdir. U qoldirgan merosning soni va hajmiga ko‘ragina emas, balki ularning mazmun va yuksak badiiyatiga ko‘ra ham tengsiz adibdir. Navoiy ijodkor inson, kashfiyotchi olim, teran mushohadali tarixchi, nozikdidli mutassavuf, aruz ilmining nuktadoni, she’riyat mulkining sultoni edi. Uning zamondoshi Zahiriddin Muhammad Bobur buni juda muxtasar tarzda ifodalab bergan: “Alisherbek naziri yo‘q kishi erdiTurkiy til bila to she’r aytibdurlar , hech kim oncha ko‘p va xo‘p aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibdur, beshi “Xamsa” javobida, yana biri “Mantiq ut-tayr” vaznisda “Lison ut-tayr” otliq.To‘rt g‘azaliyot devoni tartib qilibdur: “G‘aroyib us-sig‘ar” , “Navodir ush-shabob”, “Badoye ul-vasad”, “ Favoyid ul-kibar” otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana “Mezon ul-avzon” otliq aruz bitibdur... Forsiy nazmda “Foniy” taxallus qilibdur. Yana musiqiyda yaxshi namalar bog‘labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur”.

Navoiy ko‘plab epik asarlar ijodkori hamdir. Ularning gultoji esa, shubhasiz, “Xamsa” bo‘lgan. Dostonlarning barchasi an’anaviy hamd va na‘tlar bilan boshlanadi. Muqaddimada xudoning sifatlari vasf etilgan. Dostonlarda adibning falsafiy, axloqiy-ta’limiy hamda badiiy-estetik qarashlari o‘z ifodasini topgan. Majmuada adib ijodidan ayrim namunalar berilgan.³⁷

2-kurs lirsey darsligida yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan tashqari (“Sho‘x ikki g‘izolingni”, “Ko‘ngul istar yorlar”, “Yordinayro ko‘ngul”, “Ko‘nglum o‘rtansun agar”, “Tifllar toshiki”, “Gulruxi ra’noqadim”, “Ey sabo”, “Meni ishqdin man etar soda shayx”, “Do‘stlar ahli zamondur”, “Ko‘z qonidin dema”, “Ko‘nglum ichra dardu g‘am”, “Oshiq o‘ldum...”, “Ko‘kragimdur subhning”, “Ne navo soz

³⁷ To‘xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun). – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

aylagay...” kabi) bir biridan ma’noli g‘azallari, “Bo‘lmag‘ay erdi jamoling...” deb boshlanuvchi bir masnaviysi va tajriband ham joy olgan. Ammo ularning nasriy bayoni, sharhlari keltirilmagan. Chunki ikkinchi bosqich o‘quvchisi nisbatan mustaqil fikrlovchi, anchagina adabiyotdan xabardor, badiiy san’atlar ham ularga ancha tanish bo‘lib qoladi. O‘qituvchi esa o‘z navbatida oily ma’lumotli filolog, yetarlicha malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishi, Navoiyning darsliklardagi lirik va nasriy merosini mustaqil tahlil qilib berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, o‘quvchilarga mehnatsevarlikni aniqlash va rivojlantirishga, o‘quvchilarga mehnatsevarlikni singdirishga, shuningdek ularning bo‘sh vaqtdan oqilona foydalanishiga yo‘naltirilgan maktabdan tashqari ishlar tizimi tubdan takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28-fevraldagi “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to‘g‘risida”gi 50-sonli qaroriga muvofiq bugungi kunda viloyatdagi 17ta “Barkamol avlod” bolalar markazlari to‘liq faoliyat olib bormoqda³⁸ Shunday ekan har bir pedagog qaysi sohada faoliyat olib borishidan qar’iy nazar yurtimizda yaratilga barcha qulayliklardan foydalangan holda o‘quvchi yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda adabiyot bilan doimiy hamnafas bo‘lishlari shart.

³⁸ Ўзбекистон Республикаси «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Шарк, 1997.

3.3. Yozuvchi tarjimai holini o‘rganilishida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Maktab va litsey Adabiyot darsliklarida Alisher Navoiyning asarlari o‘quvchilarning yoshi, ma’lumot qabul qilish salohiyatini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich berilgan. Jumladan, 6- sinf Adabiyot darsligida uning “Mahbub ul qulub” asari berilgan. Shoir bu nodir asarni umrining oxirida, ayni oltmish yoshida yaratgan. Navoiy tilining ravonligi, bugungi kun adabiy tilimizga ancha yaqinligi, hikoya tarzining sodda va aniqligi asarning o‘qimishlilikini oshiradi. Shunday bo‘ls-da, o‘quvchilarning yoshini hisobga olib, asarning taniqli navoiyshunos olim Porso Shamsiyev tomonidan tayyorlangan, hozirgi adabiy tilimizga o‘girilgan nusxasi ham berilgan.

Navoiy sermahsul ijod qigan shoirlardan sanaladi. Uning ijodini o‘rganish o‘ta murakkab va mas’uliyatlidir. Buning uchun o‘quvchidan ham, o‘qituvchidan ham katta istedod talab qilinadi. 5 –sinf darsligida “Hayratul –abror” dostonining o‘ninchi maqolati berilgan. Bu maqolat to‘g‘rilik haqida bo‘lib, aynan 5 –sinf o‘quvchisi egallashi lozim bo‘lgan ta‘lim –tarbiyaning asosiy qismini tashkil qiladi. Nasriy bayoni esa asarni mutoala qilishda solishtirib o‘qilishi lozim. O‘qituvchi mavzuni tushuntirish mobaynida darslikda keltirilgan nasriy bayonga suyanib qolmasdan, o‘zi mustaqil tahlil qilib berishi kerak. Dars so‘ngida o‘quvchilar uchun notanish bo‘lgan so‘zlarning izohli lug‘ati har bir o‘quvchi tomonidan mustaqil ravishda tuzilishi lozim. Barcha lug‘atlar solishtirilib, bir – birini to‘ldirib, o‘quvchilartomonidan o‘rganiladi. Chunki bu yoshdagi bolalar ko‘p so‘zlarning ma’nosini bilmaydi, so‘z boyligi ancha sust bo‘ladi. 5 –sinfda ular anchagina so‘z boyluklarini oshitishlariga zamin yaratiladi. Zotan, aynan shu bosqich bolaning kelajagini belgilashda katta ahamiyatga egadir.

“Sher bilan durroj” hikoyati mavzuni yanada tushunarli bo‘lishiga ko‘maklashadi. Hikoyat o‘quvchini qiziqtiradi. katta bilim beradi, tarbiyalaydi.

6 –sinfda Alisher Navoiyning “Mahbubul –qulub” asaridan 11, 12, 18, 22, 30, 48, 49, 50 –tanbihlar keltirilgan. 11 –tanbih “Saxovat va himmat bobida” deb

nomlanadi, 12 –tanbih esa hunar haqida, 18 –tanbih hilm –ya’ni muloyimlik, xushmuomalalik to’g’risida, 22 –tanbih yaxshilik haqida, 30 –tanbih do’stlik haqida bo’lib unda alohida qit’a ham keltirilgan:

Yor uldirki, har nechakim o’ziga,
Istamas yorig’a ham istamagay.
O’zi istarki, yor uchun o’lgay,
Ani munda sherik aylamagay.

kishi o’ziga ravo ko’rmagan narsani do’stiga ham ravo ko’rmaydi. O’zi yori uchun o’lmoqqa tayyor bo’lsa –da, bunda do’stini ham sherik qilmaydi.

Navoiy haqiqiy do’stning qanday bo’lishini shu misralar orqali tasvirlaydi. O’quvchilar endi do’stlik haqida ham chuqur bilimga ega bo’ladilar.

48 –tanbihda xalqimiz orasida mashhur maqolga aylangan “Tilga ixtiyorsiz-elga e’tiborsiz” hikmati keltirilgan. 49 –tanbih esa tilning shirinligi, chiroyli so’zlab ko’ngilga yo’l toppish haqida. 50 –tanbih yolg’on so’zlashning oqibatlari to’g’risidadir. 108 –tanbihda esa safarga chiqish va uning foydali tomonlari haqida gap boradi. 110 –tanbihda yaxshi va yomon odam qanday bo’lishi, ularning farqi haqida so’zlanadi.

“Mahbubul –qulub” “Hayratul –abror” singari tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lgan asardir. O’quvchini oq va qorani ajrata olishiga ko’maklashadi. O’quvchilarga yanada tushunarli bo’lishi uchun hikmatli so’z haqida tushuncha berilgan.

7 –sinf adabiyot darsligida “Sab’ai Sayyor” dostoni berilgan. Dostonning 6-bobi keltirilgan bo’lib, dars 5 soatga mo’ljallangan. Darslikda keltirilgan boblar suv va quruqlikda mashhur bo’lgan zolim qaroqchi hamda uningmakoni ta’rifi, sohibjamol Mehr, va ko’rkam Suhayl haqida, Suhaylning bandi bo’lgani, Mehrning otasi Navdarshohning shoh Numonga maktub yo’llagani va Jobir tomon qo’shin tortgani bayoni, ov ketidan quvib Navdarshohning qo’shinidan ayrilgani va Jobirning tuzog’iga tushgani bayoni, Numonningbo’ronga uchragani, Mehrning o’z qallig’ini chohdan chiqarib olgani va Suhayl Jobirni yenggani, ularningmurod –

maqsadlariga yetganliklari berilgan. Oxirgi darsda esa Tashbih, Tanosub, Irsoli masal san'atlari haqida tushuncha beriladi va dars mustahkamlanadi.

Beshinchi iqlimdan kelgan musofir shoh Bahromga Mehr va Suhayl haqida doston so'zlab beradi. 7 –sinf darsligida bu boblar to'liq keltirilgan. Ma'lumotlarning o'quvchilar uchun tarbiyaviy ahamiyati shundaki, asardagi voqealar insonni bir –biriga bo'lgan mehr va muhabbati, sadoqatini ko'rsatadi. Mavzu 7 –sinf yoshidagi o'quvchiga biroz murakkablik qilsa –da, o'qituvchi ko'magi bilan uning mohiyatini tushunib olishlari mumkin bo'ladi. “Saba’i Sayyor” dostonini o'tishda asarni sahnalashtirish va ochiq dars sifatida taqdim etish ham mumkin. Bunda o'qituvchi maxsus tayyorgarlik ko'rishi, rollarni o'quvchilarga bo'lib berishi va bu bilan o'quvchilarni dovyurak, sadoqatli, oqibatli qilib tarbiyalashi ko'zda titiladi.

8 –sinf darsligida Navoiyning 7 soatga mo'ljallangan lirikasidan namunalar berilgan bo'lib, har birining tahlili ham keltiriladi. Bu esa o'quvchilar bilimini yanada oshib borishiga xizmat qiladi. Dars davomida o'qituvchi Navoiy g'azallari ustida mukammal pedagogik taxnologiyalardan ham foydalanishi mumkin:

“Bilag'on” texnologiyasi

Ushbu texnologiya o'quvchilardan Navoiyning g'zallarini yanada ko'proq yod olishlarini talab qiladi. O'yin mobaynida o'quvchilar bir –birlari bilan she'rxonlik qilishadi:

Birinchi o'quvchi:

Qaro ko'zim kel –u, mardumliq emdi fan qilg'il,

Ko'zim qarosida mardum kebi vatan qilg'il.

Ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan baytning ozirgi so'zi qaysi tovush bilan tugasa, shu tovush bilan boshlanuvchi baytni keltiradi:

Lahza –lahza chiqdim –u, chekdim yo'lida intizor,

Keldi jon og'zimg'a –vu, ul sho'xi badxo' kelmadi.

Uchinchi o'quvchi:

Ishq dardinmu deyin, kipriki zahrinmu deyin,

Bu qatiq dardlar aro vasli davosinmu deyin.

To‘rtinchi o‘quvchi:

Ne bahra topqamenandinki, mendin istagay bahra,

Chu ulkim, bahrae andin tilarman, bahramand etmas.

Sinf o‘quvchilari to‘rt guruhga bo‘linadi. Qaysi guruh o‘quvchisi bilmay qolsa, o‘rniga guruhning boshqa a‘zosi aytadi, kimki baytning ikkinchi misrasini keltirsa yoki bir misra ayta olsa bir bal, agar bir bayt keltira olsa ikki ball sohibi bo‘ladi. Har bir o‘quvchiga o‘ylash uchun atigi to‘rt soniya vaqt beriladi. O‘qituvchi qatnashchilarni tekshirish bilan bir qatorda ularning ballarini doskaga yozib boradi va dars so‘ngida hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan texnologiyaning bosh maqsadi o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishdir. Chunki o‘quvchi kelajakda jamiyatning har bir institutida Navoiy ijodiga duch keladi. Uning g‘azallarini yod olib, takrorlab yurish kishiga faqat foyda beradi. Darslikda keltirilgan mustaqil o‘qish uchun g‘azallarni albatta o‘quvchilar yod olishlari lozim. Mazkur texnologiya o‘qituvchiga buni tekshirishda asqotadi. Zero muhtaram prizidentimiz takidlaganidek:

“Barchamizga a’yonki, inson qalbiga yo‘l avvalo ta’lim –tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota –onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo‘lgan yana bir buyuk zot –ustoz va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi taffakkursohiblarini tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o‘rnimizga keladigan yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirishga ularning xizmati naqadar beqiyos ekanligini o‘zimizda yaxshi tasavvur qilamiz”³⁹.

³⁹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.130 –bet.

9 –sinf adabiyot darsligida “Farhod va Shirin ”dostonidan parchalar keltirilgan. Komil inson haqida nazariy ma’lumot ham berilgan. Dostonning nasriy bayoni o‘quvchilarga asar mazmunini to‘lib tushunib yetishlariga zamin yaratadi.

M’alumki, barcha darsliklarda buyuk insonparvar shoir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, asarlari bayon qilingan. 9 –sinf o‘quvchilari endilikda eng zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari mumkin. O‘qituvchi esa darsliklar bilan cheklanib qolmasdan, Navoiy haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlar bilan o‘quvchilarning bilimloarini yillar mobaynida to‘ldirib, boyitib borishi lozim. Chunki har qanday qiziquvchan, zukko o‘quvchilardarsliklardagi ma’lumotlarni tezda o‘zlashtirib olishadi. Ammo, pedagogik amaliyot davomida shunga amin bo‘ldimki, bir sinf o‘quvchilarining tafakkuri, yangi bilimlarni qabul qilish salohiyati birdek emas. Ko‘pchilik o‘quvchilar uydagi nazorat sustligidan ham shunday ahvolga tushib qolishadi, ba’zi o‘quvchilar esa bir zumda darsni o‘zlashtirishadi va o‘qituvchidan yangi bilimlar, ma’lumotlar berishini, pedtexnologiyadan foydalanishni talab qilishadi. Bunday paytda o‘qituvchi slaydlar taqdim qilsa, zamonaviy pedagogik texnologiya tashkil qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“ Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da yoshlarni ma’naviy barkamol qilib shakllantiriga alohida e’tibor berish zarurligi takitlangan. Bunga adabiyot darslarisa so‘z san’atining estetik tabiatidan kelib chiqibish ko‘rilgandagina yuksak samaraga erishish mumkin bo‘ladi.

O‘qituvchi o‘quvchini o‘qitishga emas, balki uni o‘qitmasa turolmaydigan ruhiy-pedagogik holatga keltirishga urinishi lozim⁴⁰.

1. Dars mavzusi: Alisher Navoiy hayoti va ijodi

2. Dars maqsadi:

– **ta’limiy:** O‘quvchilarda Alisher Navoiyning hayoti va uning ijodi bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash,

⁴⁰ Нязметова Г. Навоини англамоқ учун яна бир сабоқ. (илмий тўрлам), Низомий номидаги ТДПУ. 2006. 161 –б.

- **tarbiyaviy:** o‘quvchilarning ona tiliga, vatanga bo‘lgan muhabbatini oshirish, ajdodlarimiz qoldirgan boy adabiy merosni asrab –avaylashga o‘rgatish,
- **rivojlantiruvchi:** bo‘yicha bilim,ko‘nikma va malakalarni hosil qilish

3. Tayanch so‘zlar: Alisher Navoiy, buyuk xamsanavislar, “Xamsa”chilik ananasi, va “Xamsa”haqida tushuncha.

4. Dars turi: ijodiy muloqot.

5. Dars jihozlari: darslik,Alisher Navoiy portreti,shoir hayot yo‘li bo‘yicha tuzilgan xronologik jadval,test topshiriqlari,Navoiy “Xamsa”si yuzadidan plakatlar.

6. Darsda foydalaniladigan metodlar: “Slayd asosida ma`ruza”, “Kichik guruhlarda ishlash” interfaol metodlari.

7. Dars rejasi:

- 1) Tashkiliy qism – 2 minut.
- 2) Uy vazifalarini so‘rash – 7 minut.
- 3) Yangi mavzuni bayoni – 25 minut.
- 4) Yangi mavzuni mustahkamlash – 10 minut.
- 5) Uyga vazifalar berish – 1 minut.

8. Darsning borishi:

Tashkiliy qismda navbatchidan o‘quvchilarning davomati aniqlanadi va dars jihozlari darsga hozirlanadi. Uy vazifalarini so‘rash maqsadida foydalaniladigan “Kichik guruhlarda ishlash” interfaol metodi uchun savollar tayyorlab qo‘yiladi.

Uy vazifalarini tekshirish: “Kichik guruhlarda ishlash” uchun o‘quvchilarni 2 guruhga bo‘lib, tarqatma materiallar asosida bahs-munozara olib boriladi. Guruhlar quyidagi mavzularda fikr-mulohaza bildiradilar:

I guruhga: Rabg‘uziyning hayoti va ijodi

II guruhga: “Qissasi Rabg‘uziy”dan olindan parcha haqida mulohazalar

Har bir guruhning javobidan so‘ng xulosalar yasaymiz.

Yangi mavzuning bayoni: Mavzuni yoritishda “Slayd asosida ma`ruza” interfaol metodidan foydalanamiz. Bunda asosan quyidagilarga e`tibor beramiz:

- Xamsachilik tarixi haqida ma`lumotlar berish;
- Sharqda xamsanavislar ijodi bilan tanishtirish;
- Navoiy “Xamsa” si tarkibidagi dostonlar haqidagi ma`lumotlarni bayon qilish;

Sharqda xamsachilikni o`ziga xos tarixi va ananasi mavjud. “Xamsa” yozishni ozarbayjonlik ulug` shoir Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. Nizomiydan yuz yildan so`ng asli shahrisabzlik turkey qabilalardan bo`lgan Xusrav Dehlaviy o`zining “Xamsa”sini 1299 -1301 –yillarda yozib tugalladi. Natijada xamsachilik ananasi paydo bo`ldi.

Dehlaviydan qariyb ikki yuz yil keyin ikki buyuk xamsanavishlar maydonga chiqdi. Bular Abdorahmon Jomiy va Mir Alisher Navoiy edilar.

Alisher Navoiynoing “Xamsa”si boshqalardan farqli ravishda muallifning ona tilisida –turkiy tilda yozildi.

8. Yangi mavzuni mustahkamlash. O`quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

- Alisher Navoiy hayot yo`li haqida so`zlab bering.
- Navoiyning asarlarini alifbo tartibida og`zaki sanab bering.
- Xamsachilik ananasi deganda nimani tushunasiz?
- Navoiyning “Xamsa”sidan tashqari yana nechta dostoni bizgacha yetib kelgan?
- Xamsanavislar orasida kimning “Xamsa”si 7 dostondan iborat?
- XV asrda turkay tilda “Xamsa” yozish o`ziga xos ijodiy jasorat bo`lganligini asoslashga harakat qiling.

O`quvchilarga savollar muhokamasiddan so`ng, 5 minut vaqt ichida test topshiriqlari tuzish topshiriladi.

9. Uy vazifalari:

- 1) Darslikdan “Farhod va Shirin” dostonini o’qish
- 2) Notanish bo‘lgan so‘zlarni izohi bilan daftarga yozish.
- 3) Dostonda keltirilgan hikmatli so‘zlar va maqollarni yod olish

Navoiy ijodini o‘rganishda barcha sinflarga mo‘ljallangan yana bir pedagogik texnologiyani qo‘llash mumkin.

“Tadqiqotchilar” pedtexnologiyasi

Bu texnologiya o‘quvchilarni izlanishga, ko‘proq malumotlarga ega bo‘lishga undaydi. Ularning bilimlarini oshirib, mustahkamlaydi. Bu texnologiyani adabiyot darslarida barcha ijodkorlar hayoti va ijodini o‘rganishda samarali foydalanish mumkin.

O‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar qiziqishi va xohishiga qarab 3 guruhga bo‘linadi.

- 1 –guruh tarixchilar;
- 2 –guruh adabiyotshunoslar;
- 3 –guruh suhandonlar;

Tarixchilar guruhi a‘zolari xronologik jadval orqai Navoiy hayoti va ijodi bilan bog‘liq bo‘lgan sanalardagi muhim tarixiy voqealarni sanab o‘tadi.

1 –o‘quvchi: G‘azal mulking sultoni Mir Alisher Navoiy 1441 –yili 9 – fevralda Hirot shahrida tug‘uldi. 1447 –yili Alisherlar oilasi Xurosonga yo‘l oladi. 1451 –yilda yana Hirotga qaytadi. 1452 –yili taxtga Abulqosim Boburmirzo chiqadi va Alisherning otasi Sabzavorga hokim etib tayinlanadi.

2 –o‘quvchi: 1453 –yilda Alisherning otasi vafot etdi. U 7 -8 yoshlaridan she‘r yoza boshladi. Navoiy 1460 –yillarning ikkinchi yarmida Samarqandda yashadi.

3 –o‘quvchi: 1472 –yilda Navoiy vazir, 1487 –yilda Astrobodga hokim etib tayinlanadi, 1488 –yili Navoiy Hirotga qaytib keladi va shu yerda umrining oxirigacha ijod bilan shug‘ullanadi. 1501 –yili 3 –yanvarda vafod etadi.

Navoiy hayot yo‘li bilan qisqacha tanishib, ijodi bo‘yicha adabiyotshunoslar jamoasiga so‘z navbati beriladi.

1 –o‘quvchi: Navoiy ulkan va boy lirik xazina yaratgan shoirdir. Navoiyning besh dostonni o‘z ichiga ilgan “Xamsa”, aruz vazni sirlarini bayon etuvchi “Mezon ul -avzon”, tildan saboq beruvchi “Muhokamat ul –lug‘atayn” hamda “Nazm ul – javohir” , hayot tajribalaridan yaratilgan “Mahbub ul –qulub ” asarlari bor.

2 –o‘quvchi: Navoiyning eng yirik asarlaridan biri “Xamsa”dir. “Xamsa” Navoiy ijodining yuksak cho‘qqisi hisoblanadi. Navoiyning “Xamsa”si tarkibidagi dostonlar:

“Hayrat ul –abror” 3988 bayt.

“Farhod va Shirin” 5782 bayt.

“Layli va Majnun” 3622 bayt.

“Sab‘ai Sayyor” 5808 bayt.

“Saddi Iskandariy” 7215 bayt.

3 –o‘quvchi: Ma‘lumki Navoiy lirik poeziya taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. U o‘z xalqini sevadi, ona tuprog‘ini ardoqlaydi, porloq kelajak uchun komil insonlarni tarbiyalash lozim degan qarashlarni o‘z asarlarida ilgari suradi.

Soir insonlarni insofga chorlaydi, jamiyatda osoyishtalik bo‘lishi uchun to‘g‘rilikni, hilmni, rostgo‘y bo‘lishni va mazlumlarni xo‘rlamaslikni, rahimdil bo‘lishni o‘z asarlarida aks ettiradi. Jumladan, “Hayrat ul –abror”. “Mahbub ul – qulub” asarlarida bular haqida keng tushunchalar berilgan.

Navbat suhandonlar guruhiga beriladi.

1 –o‘quvchi: Navoiy haqida uning zamondoshi shunday deydi: “Navoiy amirlik taxtini o‘zining muborak qadami bilan ziynatladi, Yaralangan davr jarohatlariga malham qo‘yib, puralam kasallariga adolat bilan shifo baxsh etdi”.

2 –o‘quvchi: Alisher Navoiy istedodiga Mavlono Lutfiy yuksak baho bergan. Navoiyning :

Orazin yopqach ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo‘ylakim, paydo bo‘lur, yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh , –

deb boshlanuvchi gʻazalini tinglab: “Vaaloh, agar muyassar boʻlsa edi, oʻzimning forsiy va turkiy tillarda aytgan 10 -12 –baytimni shu gʻazalga almashtirardim va buni oʻzimning eng katta yutugʻim deb bilardim”, degan.

Bu turkiy sheʼriyatga juda katta istedod kirib kelayotganidan nishona edi.

3 –oʻquvchi: Zamondoshimiz adabiyotshunos olim professor Aziz Qayumov shoir haqida shunday deydi: “Buyuk shoir va mutaffakir Alisher Navoiyning hayoti el –u yurtga sadoqat bilan xizmat qilishning eng yorqin timsolidir”

4 –oʻquvchi: Yurtboshimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimov Navoiyga oʻzining “Yuksak maʼnaviyat –yengilmas kuch” asarida shunday taʼrif beradi: “Agar bu ulugʻ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutaffakir desak, mutaffakirlarning mutaffakiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”.

Oʻyin shu tariqa davom etadi. Oʻqituvchi guruhlarini nazorat qilib boradi, toʻgʻri va toʻliq boʻlgan javoblar hisobga olinadi, ballar hisoblanib, gʻolib guruh aniqlanadi.

Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturida adabiyot predmetining tarbiyaviy –maʼrifiy vazifalari hamda oʻquvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5 -9 –sinf larida adabiyotni ikki bosqichga boʻlib oʻrganish koʻzda tutilgan. Bosqichlar orasida mantiqiy izchillik, davomiylik va uzluksizlik boʻlishini taʼminlashga katta eʼtibor qaratilgan. Buni turk dunyosi adabiyotining eng yirik vakili Alisher Navoiy hayoti va ijodini mantiqiy izchillikda, uzluksiz oʻrganishda koʻrish mumkin. Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak choʻqqisidir. Chunki hech kim unga qadar va undan keyin ham bu tilda “koʻp va xoʻp” yozmagan. Navoiy hayoti va ijodi barcha taʼlim bosqichlarida uzluksiz oʻrganiladi.

XULOSA

Jahon madaniyatiga o‘zining boy merosi bilan katta hissa qo‘shgan buyuk bobakalon shoirimiz Mir Alisher Navoiy asarlaridagi fikr–mulohazalari bashariyatga xizmat qila olishi bilan qimmatlidir. Uning ijodini o‘rganish shoir haqida kengroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Navoiy ziddiyatli va tahlikali bir zamonda yashaganligiga qaramay, o‘zidan boy meros qoldirdi. Uning asarlari nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki chet mamalakatlarda ham sevib o‘rganiladi. O‘zbek adabiyotida Navoiy haqida juda ko‘p ilmiy ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, metodika sohasida yetarli tadqiqotlar olib borilmaganligi va asarlarining darsliklarda o‘qitilishi va bunda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darslarda ularni faol qo‘llashning ahamiyati to‘liq yoritilmaganligi sababli biz o‘z bitiruv malakaviy ishimizda mana shu jihatlarni yoritib berishga harakat qildik.

Ishning dastlabki bobi “Alisher Navoiy faoliyati va adabiy merosini o‘rganish ” deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi qismida Navoiy hayoti va ijodi, boy adabiy merosining o‘rganilishi haqida fikr yuritildi. Chunki Navoiy shaxsiyatini, hayoti va ijod yo‘lini o‘rganish keying boblarning mazmunini kengroq tushunishga ko‘mak beradi. Ma’lumki, mutafakkirning eng yetuk va uni dunyoga tanitgan asari bu – “Xamsa”. Bu asar beshta dostonidan tashkil topgan bo‘lib, uni o‘quvchilar uchun tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir. “Xamsa” dostonlarida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma’daniy, ma’rifiy jihatlari obrazlar, maqolatlarda keltirilgan voqealar misolida bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyatiga bevosita aloqadordir. Dostonlardagi Bahrom va Iskandar obrazlari barchaga birdek o‘rnak bo‘ladigan darajada gavidalantirilgan. Navoiyning komil inson haqidagi qarashlari Farhod orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Navoiy asarlaridagi har bir obraz, personajlar ma’lum bir fikrni kitobxonga yetkazishda faol xizmat qiladi.

Birinchi bobning ikkinchi qismi Mir Alisher Navoiyning asarlarida insonparvarlik qarashlarini talqin etishga bag‘ishlangan. Navoiy ulug‘insonparvar

ijodkor. U insoniyatni tinch –totuv, osoyishta yashashini, jamiyatda hech qanday buzg‘unchiliklar, razilliklar bo‘lmasligini, davlat amaldorlari xalqning mulkiga xiyonat qilmasliklarini, butun olamda umuminsoniy qadriyatlar davron surishini orzu qiladi. Uning asarlarida bu holatni yaqqol kuzatish mumkinligini ko‘rib o‘tdik.

Ikkinchi bobda Navoiyning ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rni, uning beqiyos tarbiya maktabi haqida so‘z yuritiladi. O‘zbek va fors tillarida ijod qilgan zullisonayn shoirning “Hayrat ul –abror” dostonida va “Mahbub ul –qulub” asarida o‘quvchilar uchun yirik tarbiya maktabi bo‘la oladigan qarashlari, fikrlari keltirilgan. 5 –sinfda “Hayrat ul –abror” dostoning berilishi ham bejiz emas. 6 –sinfda “Mahbub ul –qulub” asari berilgan. Bu asarlar kishini hayotga tayyorlaydi, haqiqiy inson bo‘lib yitishishiga, jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topa olishiga yordam beradi. Navoiy hikmatli so‘zlarining umrboqiyligi shundaki uning hikmali so‘zlari asrlar silsilasidan o‘tib, zamon chig‘irig‘iga dosh berib bugungi kunda ham xalqimiz orasida maqol sifatida faol qo‘llanilib kelinmoqda.

Uchinchi bob ushbu bitiruv malakaviy ishimizning asosini tashkil etadi. Hozirda amalda bo‘lgan darsliklarda Alisher Navoiy hayoti va ijodi, asarlardan parchalar keltirilgan. O‘rta maxsus ta’limda Alisher Navoiyning lirik asarlaridan namunalar keltirilgan. Nasriy bayoni esa berilmagan. Bu o‘quvchilarni ko‘proq izlanishga, qo‘shimcha adabiyotlar va izohli lug‘atlardan foydalanishga undaydi. Chunki maktab darsliklarida o‘quvchilar bilimni oshirib borish, ko‘nikmaga ega bo‘lishlari uchun yetarlicha ma’lumotlar berilgan. O‘qituvchi ham litsey darsigini o‘quvchilarga yetkazib berishi uchun o‘z ustida uzluksiz shug‘ullanib borishi talab etiladi. Navoiy ijodini o‘rganish davomida esa ularning bilimlari mustahkamlanadi va shoirlar haqida kengroq tushuncha hosil qiladilar.

Ko‘rib o‘tilganidek, umumiy o‘rta ta’limning barcha bosqichlarida hamda o‘rta maxsus ta’limning II bosqich talabalari uchun mo‘ljallangan adabiyot darsligida shoir hayoti va faoliyati haqida ma’lumot beriladi. Davlat ta’lim standartlarida adabiyot ta’limining maqsad va vazifalari sifatida quyidagilar

ko'rsatiladi: Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi adabiy ta'lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi.

Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, milliy va jahon adabiyotining eng munosib namunalari bilan tanishtirish asosida ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan rag'bat, mehr va muhabbat uyg'otish;

- ularni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida, adabiyotga, milliy, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash;

- ularning boy ma'naviy dunyosini shakllantirish;

- badiiy asar va uning poetik xususiyatlarini o'rganish asosida o'quvchida tanqidiy fikrlashga oid ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

- ulardagi mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishi va rivoji uchun imkoniyat yaratish;

- ularda har qanday ma'naviy xurujlarga nisbatan sog'lom va baquvvat e'tiqodga tayanadigan immunitetni shakllantirish;

- so'z san'ati vositasida o'quvchining individual va shaxslik fazilatlarini rivojlantirish.

Darsliklar bu maqsadlarga Navoiy hayoti va ijodini o'qitish davomida erishishi mumkin. Biz darsliklarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari e'tiborga olinganligini darsliklarning yutug'i deb baholaymiz. Chunki 5-sinf darsligida berilgan ma'lumot keyingi darsliklarda takrorlanmaydi, balki to'ldiriladi. 5-sinf o'quvchilarini zeriktirib qo'ymaslik uchun berilmagan tarixiy sanalar va asarlarining nomlari yuqori sinflar uchun mo'ljallangan darslikda beriladi. Buning asosiy sababi esa o'quvchilarning eslab qolish qobiliyati shakllanib bo'lganligida. Malumki, darsliklarda Navoiy hayoti bilan bo'g'liq bo'lgan tarixiy sanalar tez-tez takrorlanadi, ulardan tashqari shoirning hayotida eng muhim bo'lgan qiziqarli voqea hodidalar, shoirning ichki dunyosini ochib beruvchi ma'lumotlar berilsa, o'quvchi ijodkorning shaxsiyati, o'y va kechinmalarini, asarlarida nima demoqchi

ekanligini qalban his etadi. Bu o'rinda aytish lozimki, "Xamsa" va "Mahbub ul – qulub" asarlaridan tashqari mustaqil o'qish va yod olish uchun Navoiyning to'rtliklari va ruboiylari har bosqichda oz –ozdan berilib borilganda edi, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Agar Alisher Navoiy hayoti haqida so'z yuritganda shunchaki hikoya tarzidagi ma'lumot berishdan cheklanib, uning zamondoshlari, shogirdlari yoki yozuvchi va shoirlar tomonidan berilgan fikrlar ham darsliklardan o'rin olganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

8 –sinf adabiyot darsligidan Navoiy lirikasidagi eng go'zal g'azallar joy olgan. Mumtoz adabiyotdagi bosh mavzu ishq edi. Bunday mavzuda yozilgan she'rlar sof intim lirikaning mahsuli hisoblanadi. Ularni tahlil qilishda har bir so'zning ma'no qirrasini e'tiborga olinadi. Bu esa o'qituvchining mahoratiga bog'liq. U dars o'tish mobaynida bitta g'azalni tahlil qilib berib, qolganlarini o'quvchilar hukmiga havola etishi lozim. Shogirdlari adashgan o'rinlarda o'zi tuzatishlar kiritib, ularning fikrini to'ldirsa, ta'limning samarasi uchun xizmat qiladi.

O'rta maxsus ta'limda shoir lirikasining anchagina qismi berilgan. Chunki umumiy o'rta ta'limga Navoiyning sanoqli g'azallari kiritilgan bo'lib, bunda o'quvchilarning yoshi va qabul qilish salohiyati hisobga olingan. O'quvchilar bu she'rlar bilan tanishib, yod olib ulgurishadi. Shu sababli o'rta maxsus ta'limda yanada ko'proq lirik she'rlar havola etilgan. Endilikda o'quvchilar yillar davomida to'plagan bilim va ko'nikmalaridan foydalanib Navoiy g'azallarini mustaqil tahlil etishlari mumkin.

Xullas, badiiy adabiyot qaysi janr va mavzularda yozilmasin, undan kutilgan asosiy maqsad insonni tarbiyalashdir. Shu jihatdan qaraganda, Alisher Navoiyning ham har bir asari o'ziga xos axloqiy-ta'limiy, ma'naviy ma'rifiy ahamiyatga ega . Bu asarlarning umumiy ruhi insonni komillik ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. Маънавий юксалиш йулида (тўплам) – Т: Узбекистон, 1998.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999.
3. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Т.: Ўзбекистон.1999.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
5. Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
6. Ўзбекистон Республикаси «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Шарқ, 1997.
7. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Шарқ, 1997.

II. Ilmiy adabiyotlar:

8. O‘zbek adabiyoti tarixi.2 –jild. Toshkent, 1978.
9. Маллаев Н.Алишер Навоий. Лирика. Тошкент –“Ўқитувчи” – 1980.
10. Шайхзода М. Асарлар.6 томлик.4 –том,234 –бет.
11. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). II qism. – Т.: Sharq, 2011.
12. Alisher Navoiy hayoti va ijodi: albom/Tuzuvchilar:В.То‘хлиев. D.То‘хлиева ; -Т .: Bayoz, 2013. -56bet.
13. Алишер Навоий. Хамса. Танқидий матн.Нашрга тайёрловчи Шамсиев.П .Т.: ФА нашри, 1960
14. Бертельс Е.Э. Навоий. Монография./ Таржимон Мирзаев И. К. ф.ф.д., проф. –Т.: “Тафаккур қаноти”,2015. -356 –бет.

15. Yoʻldoshev Q, Qosimov B, Qodirov V, Yoʻldoshbekov J. Adabiyot :Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7 –sinfi uchun darslik –majmua . –T.: “Sharq”, 2013. –368 b.

16. Toʻxliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich oʻquvchilari uchun). – T.: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

17. Yoʻldoshev Q., Qodirov V., Yoʻldoshbekov J. Adabiyot (Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangi yoʻl poligraf service, 2010.

18. Olimov S. Adabiyot 8: Darslik –majmua (I qism) /S.Olimov, S. Ahmedov, R. Qoʻchqorov. –Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2014. –192 b.

19. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1967-йил, 239-бет

20. Ahmedov S, Qoʻchqorov R, Rizayev Sh. Adabiyot: umum taʼlim maktablarining 6 –sinfi uchun darslik –majmua. (II qism) –T.: Ghoʻlpon nomidagi NMIU, 2013. –160 b.

III. Badiiy adabiyotlar:

21. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўйгирма жилдлик. 16 – жилд, Тошкент: Фан, 2000. 26 –б.

22. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 14 –том . Т.: “Фан”, 1998, 83 – бет.

IV. Dissertatsiya, maqolalar toʻplami va avtoreferatlar:

23. Муслиҳиддин Муҳиддинов. Икки кутб муштарақлиги. Навоийга армуғон. илмий мақолалар тўплами.(бешинчи китоб)Низомий номидаги ТДПУ, 2006.

24. Машарипова З. “Маҳбуб ул –қулуб ” ҳикматларида халқ мақоллари. (илмий тўплам)Т.: 2006. 77 -79 –бетлар.

25. Комилов Н. Турфа талкинлар ажрим килувчи кузгу. Навоийга армуғон. илмий мақолалар тўплами. Низомий номидаги ТДПУ, 2006.

26. Тожихўжаев М. Навоийга олмонча эҳтиром. “Навоийга армуғон”, илмий мақолалар тўплами. –Т.: 2006. 132 –б.

27. Ҳайитов Ш. Сўз гавҳарининг хазинабони. Навоийга армуғон. илмий мақолалар тўплами. –Т.: 2006. 122 –б.

28. Нязметова Г. Навоини англамоқ учун яна бир сабоқ. (илмий тўрлам), Низомий номидаги ТДПУ. 2006. 161 –б.

V. Gazeta va jurnallar:

29. Ҳамид Арасли. Навоий Меросини ўрганиш тарихидан /Ўзбек тили ва адабиёти масалалари/ 1961. № 1, 3-7-бет.

30. Ойбек. Навоий ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1961. № 1, 8-бет.

31. Эшонбобоев А. Навоий таржимаи ҳолига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. № 1, 32-бет

32. Бертельс Е.Э. Навоийю Монография./ Таржимон Мирзаев И. К. ф.ф.д., проф. –Т.: “Тафаккур қаноти”, 2015. -356 –бет.

33. Абдурахмонов Ғ., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: Ўзбекистон, 2002, 198 -203 бетлар

VI. Internet saytlari:

Google.uz.

ZiyoNet.uz